8. Мануйлова Е.А. Инновационное развитие региона: формирование региональных образовательных кластеров//Инновации. 2007. № 7. – С. 77-80.
9. Фадина Т.В. Образовательный кластер как механизм реализации потребности на рынке образовательных услуг//Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. Серия «Инновации в образовании». 2007. № 5. – С.100–114.

10. Горемыко М.В. Управление качеством общего образования региона на основе кластерного подхода. Автореф. дис. канд. пед. наук.— Москва. 2010, — 23с.
11. Сафонцева Н. Ю. Проектирование педагогических объектов в условиях непрерывного профессионального образования на основе кластерного метода. Автореф. дис. докт. пед. наук. Ростов на Дону, 2007. — 39 с.
12. Гарайшина Э.Г. Региональная модель профильного химического образования в условиях образовательного кластера. Автореф. дис. канд. пед. наук. — Казань. — 2007. — 18 с.
13. Моштаков А.А. Формирование профессиональной компетентности преподавателей колледжа на основе кластерного подхода. Академический вестник Института педагогический образования РА. Человек и образование. 2013, №2(35). — С.132-135.
14. Muxamedov G‘.I. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2019-yil, 19-fevral.
15. Xodjamkulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Pedagogika fanlari doktori doktori (DSc) dissertasiyasi. Chirchiq, ChDPU, 2020. — 227 b.
16. Qarshiyeva D.E. Klaster vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. Chirchiq, ChDPU, 2021. — 122 b.
17. Sharipova G.N. Pedagogik ta’lim klasteri sharoitida talabalarda o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. Chirchiq, ChDPU, 2021. — 40 b.
18. Toshtemirova S.A. Klaster yondashuvi asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. Chirchiq, ChDPU, 2021. — 161b.



**TALABALARNI LOYIHALASH-KONSTRUKTORLIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK
IMKONIYATLARI**

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОЕКТНО-
КОНСТРУКТОРСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ
DIDACTIC OPPORTUNITIES OF DEVELOPING DESIGN-
CONSTRUCTION COMPETENCE OF STUDENTS**

Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Termiz davlat universiteti "Milliy libos va san'at" fakulteti dekani

Abdiraxmanov Sardor Normuhamadovich,

Termiz muhandislik-texnologiya instituti "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrası erkin tadqiqotchisi

Тураев Хумойиддин Абдугаффарович,

Доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, декан факультета национального костюма и искусства Термезского государственного университета

Абдирахмонов Сардор Нормухаммадович,

Независимый научный сотрудник кафедры «Инженерной и компьютерной графики» Термезского инженерно-технологического института

Turayev Khumoyiddin Abdugaffarovich,

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor, Dean of the Faculty of National Costume and Art of Termiz State University

Abdirakhmanov Sardor Normukhamadovich,

Independent researcher of the Department of "Engineering and Computer Graphics" of the Termiz Institute of Engineering and Technology

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari haqida asosli ma'lumotlar berilgan. U pedagog-olimlar tomonidan talabalarning loyihalash-

konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida yozilgan.

Аннотация. В данной статье дается обоснованная информация о дидактических возможностях развития проектно-конструкторской компетентности учащихся. Он написан на основе результатов исследований, проведенных учеными-педагогами по развитию проектно-конструкторской компетентности учащихся.

Annotation. This article provides reasonable information about the didactic possibilities of developing students' design competence. It is written on the basis of the results of research conducted by scientists and teachers on the development of students' design competence.

Kalit so'zlar: didaktik, konstruktor, grafik, loyihalash, kompetentsiya, konsepsiya, sintez, motivatsion, kognitey, refleksiv, pedagogik texnologiya, metod, kompyuter grafikasi.

Ключевые слова: дидактический, конструктор, графический, дизайн, компетенция, концепция, синтез, мотивационный, познавательный, рефлексивный, педагогическая технология, метод, компьютерная графика.

Keywords: didactic, designer, graphic, design, competence, concept, synthesis, motivational, cognitive, reflexive, pedagogical technology, method, computer graphics.

Kirish. Talabalarning loyihalash kompetentligini rivojlantirish tizimi ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar, tashqi va ichki omillarga bog'liq. Har qanday pedagogik tizim tarkibida ikkita tushuncha aniq ko'rinadi: Didaktik vazifa va uni hal qilish texnologiyasi. Didaktik vazifa tuzilishida istalgan inson faoliyati sohasidagi kabi vaziyatlar (sharoitlar) va mavjud axborot (faoliyat mazmuni)ga asoslangan maqsadlar aks etadi [1].

Chizmachilik fani o'qituvchisini tayyorlashning didaktik imkoniyatlarini o'rganish borasidagi tadqiqotimiz maqsadi texnik tayyorgarlik jarayonida o'quvchilar grafik faoliyatini tashkil etish uchun bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarning

loyihalash kompetentligi mazmuni (tarkibiy qismlari) ko'rib chiqilgan axborotlar vositasida shakllantirish hisoblanadi.

Tadqiqotimizda o'quv materiallarining mazmuni talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning har bir bosqichida grafik va o'quv-konstruktorlik faoliyatini integratsiyalash yo'li bilan belgilanadi.

Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish jarayoni tizimli-faoliyatli yondashuv asosiga quriladi. Uning ijodiy faoliyati, ya'ni loyihalash faoliyatda ko'nikma va malakalaridan ijodkorona foydalanish tajribasida ixtirochilik sifatlarini o'rni juda beqiyos.

Konstruktorning faoliyati quyidagi bosqichlarga ajratilgan:

1. Ob'ektni yaratish kontseptsiyasi - loyihalashda konstruktsiyalash bosqichi bo'lib, unda ob'ektning dastlabki modeli aqliy yoki matn bilan, grafik vositalar yoki eksperimental tarzda amalga oshiriladi; buning natijasi texnik qurilmani konstruktsiyalash va texnologik metod ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

2. Konstruktsiyalash – loyihalash bosqichi bo'lib, unda mazmunni ifodalash texnik buyum detallari bilan aniqlanadi. Konstruktorlik jarayonida konstruktor faqat aqliy faoliyatining samarasi bo'lgan, hali mavjud bo'lmagan narsani aks ettirishi kerak. Bu texnika sohasidagi ijodiy muhandislik vazifasidir.

Sintez – buyumni amalda qo'llash uchun tayyorlash texnologiyasi va texnik qurilmalarda konstruktorlik g'oyalarini ijodiy birlashtirishdir.

“Loyihalash” va “konstruktsiyalash” atamalarini yoritishda, ularni birga ko'rib chiqilishi kerakligi va bir tushunchani boshqasidan ajratmaslik maqsadga muvofiq. Aslida “konstruktsiyalash” atamasi qurish, “loyihalash” esa – loyiha, g'oyani yaratishni bildiradi, konstruktsiyalash loyihalashni o'z ichiga oladi [1]. Konstruktsiyalash faoliyatida texnik qurilmalarni yaratishda loyihaviy-konstruktorlik faoliyatni e'tiborga olish kerak.

Yuqoridagilarni tahlil qilib, loyihalash va konstruktsiyalash bu ijodiy, murakkab va o'zaro bog'liq bo'lgan jarayon deb hisoblash mumkin. Loyihalash – bu muhandislik faoliyati ko'rinishi bo'lib, biror konstruktsiyani tayyorlash uchun loyiha ishlab chiqish bilan bog'liq, konstruktsiyalash esa – loyihalash bosqichi bo'lib, konstruktsiya

variantlarini yaratish, hisob-kitoblar, operatsiyalarni bosqichma-bosqich bajarishni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili. D.Mamatov tomonidan chizmachilik fanini o'qitishda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishning ilmiy – metodik asoslari ishlab chiqilgan va amaliyot jarayoniga tadbqiq etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Chizmachilik fani o'qituvchisi shaxsini rivojlantirish jarayonini ta'minlovchi omillar yig'indisi va shart-sharoitlari aniqlangan hamda mazmuni ochib berilgan. Chizmachilik fani o'qituvchilarini tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari Sh.N.Muslimovning fundamental tadqiqotlarida o'z aksini topgan [2].

Professor N.Muslimovning tadqiqot ishlarida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy pedagogik sifatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari tadqiq etilgan, shuningdek, mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [4]. Pedagog olim Sh.S.Sharipov o'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti, o'quvchilarning ixtirochilik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqqan [5].

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchisining loyihalash kompetentligining quyidagi tarkibini aniqlash imkonini beradi:

- motivatsion-qadriyatiy komponent (shaxsning faoliyat ob'ekti sifatidagi o'rmini va yo'nalishini belgilovchi shaxsiy sifatlar;
- kognitiv komponent (ongli faoliyatni ta'minlaydigan nazariy bilimlarning mavjudligi);
- amaliy-faoliyatiy komponent (shaxs tomonidan o'zlashtirilgan, amalda sinab ko'rilgan bilim va ko'nikmalar eng samarali deb hisoblanadi);
- refleksiv-baholash komponent (shaxsning loyihalashaviy ishlarni amalga oshirishda konstruktorlik, loyihalash faoliyatida mustaqilligi, faolligi, ijodkorligi, kreativligi va o'zini-o'zi baholab borish) [6].


Metodologiya. Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonini tahlil qilish tadqiqot ishimizning asosini tashkil etadi. Yukoridagilardan kelib chikib, bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirish uchun davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi va dasturlarining tizimliliigi hamda izchilligiga e'tibor karatishni tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri deb belgiladik. Shunga ko'ra, tadqiqotni olib borishda ilmiy izlanish ob'ekti sifatida tanlangan ta'lim yo'nalishining umumiy mohiyatiga tayangan holda talabalarning loyihalash kompetentligini rivojlantirishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan jihatlar to'g'risidagi tasavvur oydinlashtirib olindi.

Chizmachilik fani umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha pedagogik kadr tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish; ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi [1].

Chizmachilik sohasi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- ta'lim jarayoni;
- o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari;
- ta'limning nazariy masalalari;
- o'qitish metodikasi;
- loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni; ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;
- mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayonlari.


Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.



1-rasm. Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan umumiy kompetentsiyalar

Tadqiqotlar va izlanishlar jarayonida bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun va kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kompetentsiyalar aniqlandi. 1-rasmda bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi

uchun va 2-rasmda kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kompetentsiyalar majmui keltirilgan [1].



2-rasm. Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy kompetentsiyalar

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari: pedagogik; ilmiy-tadqiqot; ma'naviy-ma'rifiy;

tashkiliy-boshqaruv; ishlab chiqarish faoliyati [1]. Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Xulosa. Ta'lim yo'nalishining yo'nalishlari bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining loyihalash kompetentligining rivojlantirish amaliy xarakterlar majmuasida o'z ifodasini topadi (1-jadval).

1-jadval

Kompetentlikning tuzilmasi komponenti	Loyihalash kompetentsiyalarni faoliyatda qo'llay olish jarayonida talabalarning amaliy xarakterlar majmuasi
Motivatsion-qadriyatiy	chizmachilik fanida loyihalash faoliyatni o'ziga xosligini va ijtimoiy ahamiyatini anglaydi; shaxsning chizmachilik fani faoliyati uchun muhim bo'lgan individual-psixologik sifatlar va qobiliyatlar namoyon bo'ladi; loyihalash faoliyat uchun zarur bo'lgan kompetentsiyalarni egallash uchun motivatsiyasi shakllanadi; chizmachilik sohasiga, detallar va ularning tarkibini tahlil qilishga barqaror qiziqishi namoyon bo'ladi; loyihalash faoliyatda hissiy va irodaviy munosabatlar shakllanadi; loyihalash faoliyatda individual va shaxsiy tajribalar asosida yaratilgan texnik ob'ektlar va jarayonlar natijalarini portfolio shaklida namoyon bo'ladi; axborotlar bilan ishlashga (qidirish, aniqlash, saralash, tizimlashtirish, qo'llash, rejalashtirish) qiziqishi namoyon bo'ladi; autokompetentlik - o'zining ijtimoiy-kasbiy imkoniyatlari bo'yicha xaqqoniy tasavvurga ega bo'lish, kasbiy qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi.
Kognitiv (bilish, gnostik, intellektual)	nazariy bilim va loyihalash kompetentlik sifatlariga egalikni to'la namoyon qila oladi;

	grafik savodxonlik va fazoviy tasavvur qilish, detellar tarkibini dispersion taxlil qilish madaniyatiga ega bo'ladi; chizmachilik standartlari va qoidalarini bilish, ularni samarali qo'llash, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi; talaba o'zini loyihalash faoliyatning ijodiy sub'ekti sifatida anglaydi; grafik bilimlarga tayangan holda qo'yilgan loyiha konstruktorlik vazifalarni, grafik faoliyat turlari farqini tushunadi; grafik bilimlarga tayangan holda loyihaviy-konstruktorlik faoliyat mohiyatini tahlil qiladi; loyiha negizida ustuvor yechimlarini ko'rsata oladi; grafikaviy va loyiha konstruktorlik usullarini biladi; loyiha maqsadi vazifalarini va grafik-konstruktorlik vazifalarini aniqlay oladi; loyiha negizida bajariladigan ustuvor grafik yechimlarni ko'rsata oladi; alohida vazifalar (texnik ob'ektlar) hamda loyiha negizidagi, shuningdek, grafikaviy hal qilinadigan masalalarni hal qilishdagi fanlararo aloqadorlik tuzilmasini biladi, yarata oladi; intellektual grafikaviy sifatlar (tahlil, sintez, umumlashtirish, tiplashtirish) shakllanadi.
Amaliy-faoliyatli	grafik savodxonlik, fikr va axborotni grafik shaklida tushunish va ifodalay oladi; chizmachilik asboblari yordamida grafikaviy-konstruktorlik mahsulotni tezkor yaratish qobiliyati izchil namoyon bo'ladi; muqobil (kompyuter) dasturlari (texnologiyalar) asosida grafikaviy-konstruktorlik mahsulotni erkin yaratish qobiliyati zarur vaziyatlarda namoyon bo'ladi; tasviriy madaniyat ob'ekt va ramzlarni idrok etadi va talqin qiladi; eskizlarni va ishchi chizmalarni yarata oladi; texnik iqtisodiy xarakterdagi hisob-kitoblarni bajara oladi; grafikaning turli ko'rinishlari (ishchi kompyuter, 3D o'lchamli mobil ilova dasturi, ilmiy konstruktorlik va boshqalar) hamda texnik hujjatlardan amalda foydalana oladi;

	grafikaviy faoliyat bo'yicha o'rganilgan ma'lumotlarni takrorlash, mashq qilish, namunaviy topshiriqlarni bajara oladi; namunaviy bo'lmagan amaliy grafik topshiriqlarni ketma-ketligidan maqsadli faoliyatni tanlay oladi, ranglar korrelyatsiyasiga etibor qaratadi va ularni to'g'ri amalga oshiradi; asoslangan grafikaviy va konstruktorlik, loyihaviy yechimlarining tanlovini amalga oshiradi; grafikaviy axborotlarni yaratadi, grafikaviy va texnik hujjatlarni ishlab chiqadi; grafik, konstruktorlik, dizayn, modellashtirish va ranglarni dispersion tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi; ba'zan raqamli (3D o'lchamdagi) texnologiyalar yordamida grafikaviy-konstruktorlik mahsulotni yaratish qobiliyati ko'zga tashlanadi.
Refleksiv – baholash (ijodiy, kreativ faoliyat)	grafik kompetentsiyalarni mazmunini statik qo'llanadigan, yani texnika va texnologiyaning rivojlanish darajasi aks ettiruvchi uchun tizimli ravishda doimiy rivojlanib boradi; grafik dasturlar va grafik paketlar bilan ishlash darajasini bilishga qaratilgan fazoviy fikrlash jarayonlari bilan bog'liq intellektual faoliyatga ega bo'ladi; loyihalash kompetentligini shakllantirish ta'lim jarayonini innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlar asosida loyixalay oladi; tadqiqotchilik va ijodkorlik bo'yicha grafik topshiriqlarni bajaradi; sub'ektiv va ob'ektiv yangiliklarga ega bo'lgan mahsuldor ijodiy grafik faoliyatni amalga oshiradi; grafik, kompyuter grafikasi, kompyuter dizayni, texnik ijodkorligi kabi to'garak va startap tanlovlarda ishtirok etadi; loyihalash faoliyatida muammolarni hal qilishda ijodiy yondashadi; texnik ob'ektlarini yaratish original yechimlarni tavsiya eta oladi; kompyuter texnologiyasini grafika bilan bog'lab zamonaviy paket va dasturlardan foydalana oladi;

	shakllangan shaxsiy sifat: loyihalashiy, konstruktorlik faoliyatini shaxsning o'zini-o'zi mustaqil baholaydi; raqamli (3D o'lchamdagi) texnologiyalar yordamida grafikaviy-konstruktorlik maxsulotlarni yarata olish qobiliyatini namoyon qiladi; loyixalash, tadqiqotchilik, ijodkorlik (kreativlik), texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar, qarorlar qabul qiladi, grafik faoliyatni boshqaradi.
--	---

Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchisi loyihalash kompetentligining mazmuniy va faoliyatiy komponentlarini aniqlash uchun, birinchidan, biz konstruktorning faoliyatini tahlil qildik, bu esa yangi texnik jihozni loyihalash umumiy maqsadga erishishga qaratilganligini ko'rsatib berdi [1]. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun dizayner quyidagi vazifalarni ketma-ket bajarishi lozim. Masalan, loyihalashning texnik vazifasi, texnik taklif, texnik loyiha, ishchi loyiha (xomaki konstruktorlik hujjatlari)ni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, faoliyatli yondashuvdan kelib chiqib, amaliy ko'nikmalar uning nazariy bilimlarining ishlash shakli hisoblanadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Turayev X.A. "Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirishning grafikaviy asoslari". Monografiya. -T.: "LESSON PRESS". 2021-y. 5-7-b.
2. Mamatov D.K. "Chizmachilik fanini o'qitishda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari (kompyuter grafikasi vositasida)". Diss. p.f.f.d. (PhD). -B.: 2021 y. 11-20 b.
3. Muslimov Sh.N. "Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish". Diss. p.f.f.d. (PhD). -T.: 2021 y. 67-72 b.
4. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish". Monografiya. -T.: "Fan". 2004 y. 126 bet.
5. Sharipov Sh.S. "O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti". Diss. p.f.d. (DSc). -T.: 2012 y. 264 b.
6. "5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari". -T.: O'zR OO'MTV. 14.08.2020 y. №418.



MUTAXASSIS KADRLARNI TAYYORLASHDA, KASBGA YO‘NALTIRISH SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

Avliyakulova Shaxnoza Muzafarovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Annatasiya. Ushbu maqolada kasbga yo‘naltirishning pedagogik hamda psixologik xususiyatlari, zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, so‘nggi axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish, mazmunini fan sohasidagi ilmiy yutuqlar bilan boyitish haqidagi nazariy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kasb, biologik bilimlar, taraqqiyot, mutaxassis, qobiliyatlilik, iste’dod, ko‘rgazmalilik.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОСНОВАНИЙ ПОДГОТОВКИ ЭКСПЕРТОВ

Авлиякулова Шахноза Музафаровна

Бухарский государственный педагогический институт

Аннатасия. В данной статье рассмотрены педагогические и психологические особенности профориентации, совершенствования на основе современных подходов, внедрения новейших информационно-коммуникационных технологий, обогащения содержания научными достижениями в области науки.

Ключевые слова: профессия, биологические знания, развитие, специалист, способности, талант, проявление.

IMPROVING PROFESSIONAL GUIDELINES IN TRAINING EXPERTS

Avliyakulova Shakhnoza Muzaffarovna

Bukhara state pedagogical university

Annotation. In this article, pedagogical and psychological features of career orientation, improvement based on modern approaches, introduction of the latest information and communication technologies, enrichment of content with scientific achievements in the field of science theoretical foundations are explained.

Key words: profession, biological knowledge, development, specialist, ability, talent, demonstration.

Kirish. Mamlakatimiz ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirish, oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati hamda raqobatbardoshligini ta'minlash, jahon amaliyotiga asoslangan oliy ta'lim tizimining sifat darajasini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimiga pedagogik loyihalashtirish jarayonini keng tatbiq etish orqali ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali metodlarini ishlab chiqish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish ustuvor vazifalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekistonda xorijiy ta'lim tajribalari asosida erishilgan ijobiy natijalarni umumlashtirish va rivojlantirish, biologiya ta'limi sohalari bo'yicha ta'limning yagona axborot-ta'lim portallarini shakllantirish, fanlarning yagona axborot-metodik ta'minotini yaratish imkonini beradigan fan portallarini yaratish, axborot resurslaridan biologiya ta'limi jarayonida foydalanish metodikalarini ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari, vositalari bilan jihozlash, talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilarning jahon ta'lim resurslari, zamonaviy axborot resurs markazlari ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan zamonaviy sharoitlarda talabalarning kasbiy yo'naltirish doimiy o'zgarib borayotgan sharoitda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda, "oliy ta'lim muassasasida ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasini, didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, takomillashtirish mezonlari va shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, o'qitish sifatining samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv faoliyatining mahsuli bu

kasbiy bilimlarning o'zlashtirish jarayoni hisoblanadi. Lekin ba'zida shunday vaziyatlar ham uchrab turadiki, kasbiy masalalarni hal etishga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan mutaxassis zarur paytda kerakli faoliyat uchun tayyor bo'lmay qolishi mumkin. Bunday holatda kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi, yoki samarasiz bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi unda nafaqat kasbiy bilimlarning kerakli darajasini, balki psixologik tayyorgarlikni, o'zini- o'zi boshqarish va kerakli faoliyatga yo'naltirish, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, kasbiy, ma'naviy va jismoniy imkoniyatlarini kerakli sharoitda qo'yilgan masalani hal etishga to'g'ri yo'naltira bilish bilan bog'liq kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, jarayonga moslashtirishni nazarda tutadi. Chunki, aynan shu ko'nikma va malakalar bo'lajak mutaxassislarni kasbiy moslashtirish jarayonidagi zaruriy fenomenlar sifatida baholanadi.

Kasbiy ko'nikma va malakalar – amaliy faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan, shaxsning o'zlashtirilgan kasbiy bilimlarini anglangan ish harakatlariga aylanishidagi avtomatlashgan usuldir.

Metodlarning o'rganganlik darajasi. O'qitishning texnik vositalari bilan o'rganishdan maqsad talabalarni zamonaviy texnik vositalarni qo'llashning pedagogik asoslari, bilimlari bilan qurollantirish va ularni amaliy ish faoliyatida samarali qo'llashga o'rgatishdir. O'qitishning texnik vositalari mahsus didaktik materiallar (axborot manbalari) va qurilmalar (turli xil a'ratlar va mashinalar) majmuidan iborat bo'lib, o'qitish jarayonida to'g'ri va teskari bog'lanish kanallarini jadal ishlashini ta'minlaydi.

O'qitishning texnik vositalari fanini o'rganish va uni o'quvchilar tomonidan mashg'ulotlarda qo'llash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ko'rgazmalilikni o'qitish jarayonida samarali qo'llash;
- uzatiladigan axborotni o'ptimallashtirish;
- o'quvchilarga bilim, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish;
- o'qitish texnik vositalarini asosiy vazifasi – o'qitish jarayonini samara-dorligini oshirishdir.

O'qitishning ta'lim vositalarining didaktik asoslari.

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda o'quvchi va o'qituvchining mehnat unumdorligini oshirish, ya'ni o'quv- tarbiya jarayonini jadallashtirish masalasi pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Xarhaqiqat, fan-texnikaning rivojlanishi tufayli o'quvchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan axborot miqdori nihoyatda ko'payib bormoqda. Bu axborotni o'quvchilarga an'anaviy usul va vositalar yordamida yetkazib berish esa murakkablashib bormoqda. Shunga qaramay ko'pgina ilmiy kashfiyot va yangiliklarni ma'lum asbob va apparatlar vositasida yoritib berish ta'lim jarayonini ancha osonlashtirishi mumkin.

Bunday sharoitda o'quv muddatini o'zgartirmay o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, talabalarga puxta va chuqur bilim berish, ularda mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini hosil qilish kabi vazifalarni amalga oshirishda ta'limning texnik vositalari alohida o'rin to'tadi.

Texnik vositalar bilan jihozlangan mahsus o'quv honalari-avtomatlashtirilgan auditoriyalar, zallar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Har bir mavzu materiali bo'yicha texnik vositalardan foydalanish metodikasi aniq va puxta ishlab chiqilgan va amalda sinalgan bo'lishi lozim, ularga xos mahsus didaktik materiallar esa uzluksiz ravishda takomillashtirilib borilishi zarur. Inson faoliyatida texnikaning qo'llanilishi, ayniqsa uning o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish maqsadida ishlatilishi o'ziga xos omillarga egadir. Bu omillar birinchidan, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining keskin o'zgarishiga, ikkinchidan, o'quvchiga yetkazilishi kerak bo'lgan voqea va xodisalarning chuqurroq o'rganilishi va o'zlashtirilishiga zamin tayyorlashdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari. Jahonda ta'lim tizimini modernizasiyalash, zamonaviy texnik taraqqiyot bilan moslashtirish, yangi sohalar bo'yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlash, "ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etishga zarurat borligi qayd etilmoqda.

Mutaxassis kadrlarni tayyorlash sohasida keng miqyosdagi ilmiy tadqiqotlar dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida, jumladan, Yaponiya, AQSH, Kanada, Angliya,

Fransiya, Rossiya, GFR, Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Hindiston, Avstriya va Islandiyada olib borilmoqda.

Mutaxassis kadrlarni tayyorlash albatta zamonaviy yondashuvlarni talab qiladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida shu sohada olib boriladigan chora-tadbirlar singari, bizning mamlakatimizda ham boshqa ta'lim yo'nalishlari qatori, mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayonlarini o'qitishni boshqaruvchi tizimlar asosida tashkil qilish, axborot tizimlarni tartibga solish va yanada rivojlantirish, elektron o'quv resurslari va masofali o'qitishni tashkil qilish bo'yicha jahon andozalariga moslashtirish doirasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-sonli farmoni ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish bo'yicha aniq yo'nalishlarni belgilanganligi yuqoridagi fikrning dalilidir.

Shu bilan birgalikda zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashning integrativ texnologiyalarini ishlab chiqish, talabalarning kasbiy tayyorgarligini orttirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizning oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik yo'nalishini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va mazmunan yangilash, uzluksiz ta'lim tizimining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda metodik tayyorgarligini orttirish jamiyat talablarining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda “uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ta'lim muassasalari uchun raqobatbardosh, kompetentli mutaxassislar tayyorlashni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Kasbiy ta'limni insonparvarlashtirish tendensiyasi institute bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatiga yangi, yuqori talablarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Bu kelajakda o'qituvchining metodik kompetensiyasiga aylanish jarayonini uning kasbiy va shaxsiy o'zgarishi jarayoni sifatida qanchalik muhimligini qayta ko'rib chiqishga imkon beradi. Shu munosabat bilan metodik kompetentlik bo'lajak kasb egasi shaxsining o'qituvchi sifatida kelajakdagi mumkin bo'lgan o'zgarishi sanaladi.

Tadqiqot muammosini nazariy jihatdan o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy dolzarbligini asoslashda mavzu doirasidagi ahamiyatli tushunchalar, kategoriyalar mazmunini yoritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bois, ilmiy izlanishlar davomida kasbiy moslashtirishning pedagogik-psixologik aspektlarini: motiv, kasb tanlash motivlari, kasbiy yo'nalganlik, pedagogik kasbga yo'nalganlik, pedagogik faoliyat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kompetentlik kabi tushunchalarning mohiyati aniqlashtirish orqali yoritishga harakat qildik.

Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish – DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo'lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlash jarayonidir.

Kasbiy moslashtirish – bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirishi, individuallasuvi demakdir.

Ma'lumki, "har bir oliy ta'lim muassasasining muhim vazifalaridan biri bu birinchi kurs talabalarini o'qitishning yangi tizimiga, yangi ijtimoiy munosabatlarga ijobiy moslashuvini, talabalik maqomini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarini ta'minlashdir.

Talabalarni oliy ta'lim muassasasi sharoitiga moslashtirishda quyidagi jihatlarni alohida ko'rsatib o'tish lozim:

1) talabalarda moslashuv jarayonining kechishi murakkaab dinamiklikka ega bo'lib, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega qadriyatli tasavvurlarni o'zaro uyg'unlashuvini talab etadi;

2) talabalar uchun o'qishning birinchi va ayrim hollarda ikkinchi yili murakkab vaziyatlar bilan birga kechadi;

3) oliy ta'lim muassasida tahsil olish jarayonida talabalarda o'z-o'zini anglash tuyg'usi rivojlanadi, atrof-olam va borliqqa doir qadriyatli munosabatlar tizimining rivojlanishi davom etadi;

4) talabalarda bazaviy o'quv jarayonlari shakllanadi;

5) talabalik yillari tashkiliy, metodik va psixologik tavsifga ega bo'lib, shaxsning kasbiy va shaxsiy moslashuvining eng muhim bosqichidir.

Darhaqiqat, kasbiy moclashuv murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlovchi imkoniyatlar, shaxsning yo'nalganligi, kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy sifatlar, mehnat tajribasi ham asosiy mezonlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Bizga ma'lumki, shaxs ta'lim jarayonining faol ob'ekti va sub'ekti bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayonidagi faolligi uning yo'nalganligi bilan belgilanadi.

Atrofdagi dunyo bilan o'zaro aloqada, shaxs faol boshlovchi sifatida yuzaga chiqadi. Faollik - ijtimoiy tan olingan, maqsadga yo'naltirilgan hatti-harakatlar, ijtimoiy foydali o'zgarishlar natijasi.

Ko'pchilik odamlar "ijodkorlik" va "kreativlik" tushunchalarini sinonim deb o'ylaydi. Bu xato fikr sanaladi. Ijodkorlik jarayoni muallifning ilhomlanishiga, uning qobiliyatiga, an'analarga asoslanadi. Kreativlik jarayoni haqida gapiradigan bo'lsak, azaliy tushunchalarning borligi, nimanidir nima uchun, kim uchun va qanday yaratish va aynan nimani yaratishning asosiy tashkil etuvchi pragmatik elementi hisoblanadi.

Talabani yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishida uning nafakat tegishli kasbiy bilimni mukammal egallashi, balki yanada muhimrog'i, ushbu bilimdan ijodiy foydalana olishi, o'z tanlagan sohasi bo'yicha ishchi xodim oldiga qo'yiladigan standart topshiriqlarni bajarishdan tashkari ijodiy faoliyatga qodir bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Bo'lajak mutaxassisning psixologik tayyorgarligi kasbiy yetuklikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – yaxlit shaxsiy ta'limning tizimli komponenti sifatida bo'lajak mutaxassisning psixologik madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Xulosalar. Oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislar tayyorlash tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqib, tadqiqot doirasida axborotli-mazmunli sharoit, texnologik sharoit, refleksiv sharoit kabi pedagogik psixologik shart-sharoitlar o'rganildi. Olib borilgan tahlil natijalaridan ma'lum bo'ladiki, pedagogik amaliyot, mustaqil ta'lim, to'garaklar, auditoriyadan tashqari ishlar, jamoaviy tadbirlar, ijodiy kastinglar va boshqa turdagi tashkiliy tadbirlar talabalarning kasbiy moslashish va rivojlanishdagi muhim vositalardan sanaladi.

Talabalar mustaqil ta'limining asosiy vazifasi mustaqil ravishda ma'lumotlar topish usuli bilan kasbga yo'nalish, bilim olishni rivojlantirish, o'quv jarayoniga ijodiy yondashishga faol qiziqishni shakllantirishdan iborat. Talabalar mustaqil ravishda kurs ishlari, kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlayotganlarida qo'yilgan muammolarni chuqur tahlil qilib, o'zlarining mustaqil asoslangan fikr va xulosalarini chiqarishlari kerak.

Oliy o'quv yurtlari malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Bunda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Zikirayev, I.Azimov, R.Yo'ldoshev, S.Usmonov O'quvchilar bilimini tekshirishda innovatsion texnologiyalar. "Xalq ta'limi", T. 2001 y. 5-son.
2. J.O.Tolipova "Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. "Cho'lpon" T.: 2011y. 128 bet.
3. Olimov Q.T, Uzoqova L.P, Alimov A.A, Jo'rayev H, Jalolova D.F, Alimov A.T, Mirzayeva F.T. "Kasb ta'limi metodikasi" darslik-Toshkent-"Fan va texnologiya"-2016 yil. 78-80 bet.

4. M.T, Hayitov B.X. “Kasbiy ta’lim metodikasi”-Toshkent-“Navro’z”-2017 yil. 113-115 bet.
5. Sayidahmedov S.N, Abduvohidov S. “Kasb ta’limi o’qituvchisining pedagogik faoliyati modeli” Toshkent--“Fan va texnologiya”-2017 yil. 95-96 bet
6. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. “Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi kasb tanlashga yo'llash”. Farg’ona- “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”-2014 yil. 32-35 bet

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA VA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA KOGNITIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Mengnorov Islom Jumanazarovich,

Termiz davlat universiteti Badiiy grafika va dizayn kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqola talabalarning tasviriy san'at darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'quv va kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishni boshqarish, birinchi navbatda, OTM talabalarini muammolarni aniqlashga jalb qilish, maqsadlarni shakllantirish, ularga erishish uchun samarali vositalarni tanlash, rejalarning bajarilishini nazorat qilish va talabalarning mustaqil o'quv va kognitiv faoliyatni boshqarishga tayyorligini rivojlantirishga yordam beradigan muvaffaqiyatli vaziyatlarni tashkil etishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: kognitiv, kompetensiya, kompyuter texnologiyalar, shaxsiy madaniyat, refleks, obyekt, Slayd-shousi, idrok etish.

РАЗВИТИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ НА ЗАНЯТИЯХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И ВНЕУЧЕБНОЙ МЕРОПРИЯТИЯХ

Менгноров Ислам Джуманазарович,

Преподаватель кафедры художественной графики и дизайна Термезского
государственного университета.

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется развитию познавательной компетентности студентов на занятиях изобразительным искусством и внеклассной деятельности, а также управлению развитием учебно-познавательной компетентности, прежде всего, привлечению студентов высшей школы к выявлению проблем, формированию целей и выбору эффективных средств их решения. их достижения, заключается в контроле за выполнением

планов и организации успешных ситуаций, которые помогают учащимся развивать готовность управлять самостоятельной учебной и познавательной деятельностью.

Ключевые слова: познавательная способность, компетентность, компьютерные технологии, культура личности, рефлекс, объект, слайд-шоу, восприятие.

DEVELOPMENT OF COGNITIVE COMPETENCE IN FINE ART CLASSES AND EXTRA-CURRICULAR ACTIVITIES

Mengnorov Islam Jumanazarovich,

Teacher of the Department of Art Graphics and Design of Termiz State
University.

Abstract. This article focuses on the development of cognitive competence of students in visual arts classes and extracurricular activities, and management of the development of educational and cognitive competence, first of all, involving higher education students in identifying problems, forming goals, and choosing effective means to achieve them. , is to control the implementation of plans and organize successful situations that help students develop their readiness to manage independent learning and cognitive activities.

Key words: cognitive, competence, computer technology, personal culture, reflex, object, Slide show, perception.

Ta'limni modernizatsiya qilish doirasida yangi ta'lim standarti umumiy ta'limni bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirishdan ta'lim kompetensiyalari kompleksini o'zlashtirish uchun sharoit yaratishga yo'naltirishni o'z ichiga olgan kompetensiya-faoliyat yondashuviga qaratilgan holda qurilgan.

Ta'lim vakolatlari talabalarning olingan bilim, ko'nikma va malakalardan amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda foydalanishga tayyorligini belgilaydi. Ushbu

yondashuvga muvofiq, qiymat-semantik, ijtimoiy-mehnat, axborot, umumiy madaniy, kommunikativ va shaxsiy o'zini o'zi takomillashtirishning kompetensiyasi bilan bir qatorda, ta'lim va kognitiv kompetensiya muhim rol o'ynaydi.

Kognitiv kompetensiya-bu talabaning mustaqil kognitiv faoliyat sohasidagi vakolatlari to'plami, shu jumladan haqiqiy bilish obyektlari bilan bog'liq bo'lgan mantiqiy, uslubiy, umumiy ta'lim faoliyati elementlari. Bunga maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tahlil qilish, aks ettirish, o'z-o'zini baholashni tashkil qilish usullari kiradi.

Ta'lim standartini sifatli o'zlashtirishni ta'minlash, o'quv va kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga ko'maklashish faqat ta'limga faoliyatga asoslangan yondashuv orqali mumkin.

Keling, "Tasviriy san'at" fanidan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv va kognitiv kompetensiyani shakllantirishning eng muhim faoliyat shakllarini ko'rib chiqaylik:

- * o'zlarining bilim faoliyatini mustaqil va motivatsion tashkil etish qobiliyati;
- * oddiy haqiqiy ulanishlar va bog'liqliklarni o'rnatish;
- * madaniyat va san'at hodisalarini taqqoslash, tasniflash, baholash;
- * har xil turdagi manbalarda kerakli ma'lumotlarni qidirish, tanlash va qayta ishlash;
- * ijodiy ishlarni bajarish uchun multimedia resurslari va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- * badiiy ta'limning shaxsiy madaniyatni rivojlantirish vositasi sifatida ahamiyatini tushunish;
- * san'at asarlariga o'z munosabatingizni aniqlang;
- * ularning madaniy va milliy o'ziga xosligidan xabardor bo'ling.

Talabalarning o'quv va kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishni boshqarish, birinchi navbatda, OTM talabalarini muammolarni aniqlashga jalb qilish, maqsadlarni shakllantirish, ularga erishish uchun samarali vositalarni tanlash, rejalarning bajarilishini nazorat qilish va talabalarning mustaqil o'quv va kognitiv faoliyatni

boshqarishga tayyorligini rivojlantirishga yordam beradigan muvaffaqiyatli vaziyatlarni tashkil etishdan iborat.

Kognitiv kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishni samarali boshqarish o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalangandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin: muammoli va loyiha asosida o'qitish texnologiyalari; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; o'qitishda o'yin usullaridan foydalanish: rol o'ynash, biznes va boshqa turdagi o'quv o'yinlari; hamkorlikda o'rganish (jamo, guruh ishi); axborot-kommunikatsiya va boshqa pedagogik texnologiyalar.

"Tasviriyy san'at" fani uchun hozirgi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalari orasida eng ommabop va dolzarb bo'lgan talabalarning loyihaviy faoliyati texnologiyasi ahamiyatlidir. Loyiha individual bo'lishi mumkin, lekin odatda har bir loyiha bir guruh talabalarning kelishilgan birgalikdagi harakatlari natijasidir. Amaliyotdan shuni aytishim mumkinki, boshlang'ich guruh o'quvchilari, qoida tariqasida, guruh yoki juftlik ishlarini afzal ko'rishadi. Ammo talabalar individual ijodiy ishlarni bajarish, mustaqil ravishda ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Loyiha faoliyati eng katta ta'sir ko'rsatadigan bir nechta ko'nikmalar guruhlarini ajratish mumkin:

- tadqiqot (g'oyalarni yaratish, eng yaxshi yechimni tanlash);
- ijtimoiy hamkorlik (ta'lim faoliyati jarayonida hamkorlik qilish, do'stlarga yordam berish va ularning yordamini qabul qilish, birgalikdagi ishlarning borishini kuzatish va uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish);
- baholovchi (taraqqiyotni, ularning faoliyati natijasini va boshqalarning faoliyatini baholash uchun);
- axborot (kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda qidirish; qanday ma'lumot yoki qanday ko'nikmalar yetishmayotganligini aniqlash);
- taqdimot (tinglovchilar oldida gapirish; rejalashtirilmagan savollarga javob berish; turli xil ko'rish vositalaridan foydalanish; badiiy qobiliyatlarni namoyish etish);
- refleksiv (savollarga javob bering: "men nimani o'rgandim? Siz nimani o'rganishingiz kerak?");

- boshqaruv (jarayonni loyihalash; faoliyatni, vaqtni, resurslarni rejalashtirish; qaror qabul qilish; jamoaviy vazifani bajarishda mas'uliyatni taqsimlash).

Loyiha faoliyati texnologiyasi axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq. Masalan, talabalar o'zlarining loyiha ishlarini himoya qilish uchun multimedia taqdimotlarini yaratadilar. Loyiha bo'yicha ma'lumot to'plash asosan Internet-resurslar yordamida amalga oshiriladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari guruhda ham faol qo'llaniladi: umumlashtirish va mustahkamlash uchun materiallar darsning birinchi bosqichida ishlatilishi mumkin bo'lgan slaydlarda ishlab chiqilgan test topshiriqlari shaklida qo'llaniladi; o'tgan materialni takrorlash uchun ("badiiy daqiqalar"). Sinov topshiriqlari yordamida dars boshida diqqatni jalb qiladigan va bilimlarni yanada o'zlashtirishga undaydigan muammoli vaziyat yaratiladi ("aqliy hujum"). Dars oxirida test topshiriqlari bolalar osongina o'rganadigan va yangi narsalarni nomlaydigan yakuniy "akkord" ga aylanishi mumkin ("Vernissage" Slayd-shousi). Ekranda ko'rsatilgan ushbu test vazifalari sizga taassurotlar, his-tuyg'ular, harakat, quvonchni baholash usullaridan foydalanishga imkon beradi.

Menimcha, guruhda o'quv va kognitiv kompetensiyani shakllantirishning eng faol usullaridan biri bu muammoli vaziyatlarni yaratishdir, uning mohiyati o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash va rivojlantirish, ularga faol aqliy harakatlar tizimini o'rgatishdir. Ushbu faoliyat talabaning haqiqiy materialni tahlil qilish, taqqoslash, sintez qilish, umumlashtirish, konkretlashtirish, undan yangi ma'lumotlarni olishida namoyon bo'ladi. Savollar va topshiriqlar nafaqat muammoli vaziyatni yaratishi, balki ma'lumotlarning yangiligi, g'alati, ajablanib, g'alati, oldingi g'oyalarga nomuvofiqlikni ham o'z ichiga olishi kerak.

Rangshunoslik asoslarini o'rganib, "refleks" tushunchasini tushuntirishda talabalarga savollar beriladi: "agar limonni ko'k mato fonida qo'ysam, qanday sariq ranglarga ega bo'ladi? Va qizil rangda? Sizningcha, u boshqa muhitda qanday soyalarga ega bo'ladi?" Talabalar gipotezani ilgari surdilar: turli xil rang muhitida mavzu boshqacha harakat qiladi. Talabalar xulosa chiqaradilar. Ular o'z xulosalarini tekshirib, obyektini turli pardalarga joylashtirishga harakat qilishadi. Yana bir vazifa tabiatdan hayvonning tasviri bilan bog'liq. Muammo: hayvonni qanday tasvirlash

kerak, masalan, uxlamaydigan mushuk? (Hayvonni majburlamasdan). Talabalar yechim izlaydilar: 1) fotosurat; 2) pozalarning eskizi; 3) mushuk bir xil pozitsiyani egallashini kuting va hokazo.

Guruhdan tashqari ishlarda, to'g'arak sinfida vazifalar darajasi qiyinlashadi. Kubni grafik qurishda talabalar o'lhagichdan foydalanish huquqiga yega yemaslar. Shu bilan birga, chizma barcha to'g'ri va parallel chiziqlarga muvofiq qurilishning barcha qoidalariga muvofiq bajarilishi kerak. Shuning uchun, chiziqlarning to'g'riligi va parallelligini tekshirish uchun ular o'z-o'zini tekshirish usullarini taklif qilishadi. Rassomlik darslarida soyalar tasviri o'rganiladi. Qoidalarga ko'ra: agar obyekt akkor chiroq bilan yoritilgan bo'lsa, obyekt issiq ranglarda bo'ladi. Agar obyekt sovuq fonga joylashtirilsa, u sovuq ohanglarga yega bo'ladi. Qoidalarining qarama-qarshiligini keltirib chiqaradigan vaziyat yuzaga keladi: ko'k parda ustidagi obyekt akkor chiroq bilan yoritilgan. U qanday soyalarga yega bo'ladi? Talabalar rasmlarni akvarel (allaqachon ma'lum bo'lgan texnika) va moy (yangi) texnikada solishtirishadi. Ular yog'li rasm yanada zichroq – "yashirish" degan xulosaga kelishdi.

Savol tug'iladi: neft texnologiyasida qanday ishlashimiz kerak – yorug'likdan qorong'igacha yoki aksincha? Talabalarning aytishicha, ish akvarelda bo'lgani kabi – yorug'likdan qorong'igacha amalga oshiriladi. O'qituvchi ushbu yondashuvda nima sodir bo'lishini ko'rsatadi. Talabalar asarlar xira ko'rinishini tushunishadi. Binobarin, yog ' texnikasida ish quyuk ranglardan och ranggacha amalga oshiriladi, degan xulosaga kelishdi, chunki akvarel vaqt o'tishi bilan porlaydi va yog ' qorayadi, ya'ni yog ' texnikasida yuqori qatlamda ochiq ranglar qolishi kerak. ISO ning rang fizikasi, geometriya, adabiyot, biologiya va boshqalar bilan aloqasi. tekshirilmoqda. Biz soyalar tasvirini ko'rib chiqamiz. Qishda ular ko'pincha sovuq, yozda yesa ular bir vaqtning o'zida ham issiq, ham sovuq bo'lishi mumkin. Nima uchun? Masalan, pomidorning rasmini qurish uchun talaba pedunkulning mevaga qanday biriktirilganligini bilishi kerak.

Xulosa

Natijalar shuni ko'rsatadiki, gender stereotiplari va zo'rvonlik tasavvurlari o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud. Erkak talabalar orasida zo'rvonlikni kuch va erkaklik belgisi sifatida qabul qilish darajasi yuqori. Shuningdek, ta'lim tizimi zo'rvonlik tasavvurlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu natijalar ta'lim tizimida genderga asoslangan stereotiplarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA. Ushbu tadqiqot natijalari gender stereotiplari va zo'rvonlik tasavvurlari o'rtasidagi kuchli bog'liqlikni ko'rsatadi. Tadqiqotda ishtirok etgan erkak va ayol talabalar o'rtasidagi farqlar zo'rvonlikni qabul qilish darajasi, zo'rvonlikni

kuch va erkaklik belgisi sifatida qabul qilish va ta'lim tizimining bu jarayonga ta'siri kabi ko'plab jihatlarida aniq namoyon bo'ldi.

Har qanday bola qurbon bo'lishi mumkin, lekin ular odatda zaifroq yoki boshqalardan farq qiladigan bolalardir. Maktab zo'ravonligining eng ko'p qurbonlari quyidagi bolalardir:

- jismoniy nuqsonlar-ko'zoynak taqish, eshitish qobiliyati pasaygan yoki harakat buzilishi bo'lgan bolalar;
- xulq-atvor xususiyatlari-yopiq xatti-harakatlarga ega bolalar;
- tashqi ko'rinish xususiyatlari-qizil sochlar, sepkillar, ochilgan quloqlar, egri oyoqlar, boshning maxsus shakli, tana vazni (to'liqlik yoki ingichka) va boshqalar.;
- maktabdan qo'rqish;
- jamoada yashash tajribasining yetishmasligi (uy bolalari);
- kasalliklar-epilepsiya, tiklar va giperkinez, duduqlanish, nutqning buzilishi-dislaliya (til bilan bog'liq til), disgrafiya (yozma nutqning buzilishi) disleksiya (o'qish buzilishi), diskalkuliya (hisoblash qobiliyatining buzilishi) va boshqalar;
- aqlning pastligi va o'rganishdagi qiyinchiliklar. [12,13;].

Maktabdagi zo'ravonlik ikki shaklda namoyon bo'lishi mumkin – rasmiy va norasmiy. Rasmiy tomon o'quv dasturlarining mazmunini va o'quv jarayonini tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Norasmiy tomon bolalarning tengdoshlari va o'qituvchilar bilan shaxslararo o'zaro munosabatlarining xususiyatlari bilan bog'liq.

Tadqiqotchilar ta'lim muhitida zo'ravonlikni keltirib chiqaradigan bir qancha omillarni aniqlaydilar:

- ta'lim muassasasining umumiy psixoemotsional kelib chiqishi, o'zaro ta'sir sub'ektlarining yuqori darajadagi xavotiri bilan, o'z his-tuyg'ularini nazorat qila olmaslik va holatlarni tartibga sola olmaslik bilan tavsiflanadi;
- ta'lim muassasasining "siyosiy" tizimi, shu jumladan o'qituvchilar tarkibidagi tajovuzkor munosabatlar, shu jumladan avtoritar direktiv boshqaruv uslubi, 82oshi82ic82 va kasbiy talablarning asosli tizimining yo'qligi;

- o'qituvchilarning maktab o'quvchilariga bo'lgan munosabati, kattalar tomonidan asossiz talablar va bolalarning huquqlaridan maksimal darajada foydalanish asosida qurilgan xususiyatlari;
- sinf jamoasi ichidagi munosabatlar tizimi (mos yozuvlar guruhi sifatida);
- "jabrlanuvchi" va "xo'jayin" rollarini o'z ichiga olgan umume'tirof etilgan ijtimoiy rollarning mavjudligi;
- ommaviy axborot vositalari tomonidan targ'ib qilingan jamiyatdagi an'analar [14,15,12,16].

Ta'limdagi psixologik zo'ravonlik muammosi tadqiqotchilar va publitsistlar tomonidan, masalan, jinsiy yoki jismoniy narsalarga qaraganda kamroq ko'rib chiqiladi.

Psixologiyada ham o'qituvchi, ham tengdosh tomonidan psixologik zo'ravonlikni ko'rib chiqishda integral yondashuv mavjud emas. Mualliflarning bir nechtasi ushbu muammoni psixologik zo'ravonlikni ta'lim va tarbiya vositasi sifatida ko'rib chiqish, intizomni o'rnatish usulini tanlashni oldindan belgilab beradigan o'qituvchining subyektiv xususiyatlarini aniqlash orqali tahlil qilishga yondashadi.

Bir nechta tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu psixologik zo'ravonlik nafaqat o'qitish, balki tarbiyaning asosiy vositasi bo'lib, ko'pincha o'qituvchi yoki talabalar tomonidan tan olinmaydi. Ta'lim jarayonida o'qituvchilarning zo'ravonlikning turli shakllaridan foydalanish sabablarini ko'rib chiqing. Ularning aksariyati stress omillari bilan bog'liq bo'lib, ular o'qituvchilarda hissiy va stressli holatlarni keltirib chiqaradi va natijada zo'ravonlik namoyon bo'lishiga olib keladi [12,17,18,13].

XULOSA.

1. Psixologik qo'llab-quvvatlash mafkura va murakkab usul sifatida (ta'lim tizimida psixologik ishlarni tashkil etish modeli sifatida) ta'lim muhitining psixologik xavfsizligini ta'minlash g'oyasiga eng mos keladi.
2. Ta'lim muhitining psixologik xavfsizligini yaratish maktabda 83oshi83 xizmatining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi mumkin. Uni amalga oshirish atrof-muhitni o'quv jarayonining barcha ishtirokchilariga qaratilgan psixologik

zo‘ravonlikni bartaraf etishni ta‘minlaydigan dasturlar va texnologiyalar bilan to‘ldirish orqali mumkin.

3. Biz taklif qilgan psixologik xavfsiz ta‘lim muhitini yaratish uchun texnologik model 84oshi84ic muloqot, hamkorlikdagi hamkorlik, psixologik zo‘ravonlikdan voz kechish bo‘yicha treninglar bilan ta‘minlanadi. Uni amalga oshirish mexanizmi shaxslararo muloqotni rivojlantirishdir. Uni yaratish texnologiyalari o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarining 84oshi va kasbiy rivojlanishi muammolari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, ulardagi tizimni tashkil yetuvchi yo‘nalish o‘zaro munosabatlarda psixologik zo‘ravonlikni rad yetishdir. Uning natijasi psixologik jihatdan sog‘lom shaxsdir.

4. Psixologik jihatdan xavfsiz ta‘lim muhiti psixologik jihatdan sog‘lom shaxsni rivojlantirishga yordam beradigan shartdir. Ruhiy salomatlik haqidagi g‘oyalarni umumlashtirish uning ba‘zi bir ko‘rsatkichlarini ta‘kidlash uchun asos beradi: o‘ziga bo‘lgan munosabat, o‘zini o‘zi anglash, individual tipologik xususiyatlarning muvozanati, hissiy va kommunikativ sohalarning holati. Turli mualliflarning ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining ruhiy salomatligi muammosiga bo‘lgan qarashlarini tahlil qilish, uni ta‘lim muhiti sharoitlari bilan o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishga, ruhiy jihatdan sog‘lom odam faqat ma‘lum sharoitlarda bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlashga imkon beradi. Bunday holat psixologik jihatdan xavfsiz ta‘lim muhitidir.

5. Ta‘lim muhitining psixologik xavfsizligi uning sub‘ektlarini himoya qilish ko‘rsatkichlarida aks etadi, bu ruhiy salomatlik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Psixologik xavfsizlik darajasini oshirish shaxsiy rivojlanish va ruhiy salomatlikni uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

6. Taklif etilayotgan psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarini qamrab olishi va o‘zaro munosabatlarda psixologik xavfsizlikni yaratishga qo‘shgan hissasiga qarab farqlanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Connell, R. W.** (2002). *Gender: Short Introductions*. Cambridge: Polity Press.

Ushbu kitobda gender rollarining ijtimoiy kontekstda qanday shakllanishi va ularning ta'lim tizimidagi stereotiplarga ta'siri keng tahlil qilinadi.

2. **Jones, S., & Myhill, D.** (2004). 'Troublesome Boys' and 'Compliant Girls': Gender Identity and Perceptions of Achievement and Underachievement. *British Journal of Sociology of Education*, 25(5), 547-561. Tadqiqotda ta'lim tizimidagi o'qituvchilar va o'quvchilarning gender stereotiplari va ulardan kelib chiqadigan yutuq va muvaffaqiyatsizliklari o'rganilgan.

3. **Smith, P. K., Cowie, H., Olafsson, R. F., & Liefhoghe, A. P.** (2016). Gender Differences in Victim and Bully Roles in Bullying: The Importance of Sex-typed Expectations. *Educational Research and Evaluation*, 22(5-6), 474-498. Tadqiqotda gender stereotiplarining zo'ravonlik tasavvurlariga ta'siri va o'quvchilar orasidagi bullylikka nisbatan munosabatlar o'rganilgan.

4. **Mac an Ghail, M.** (1994). *The Making of Men: Masculinities, Sexualities and Schooling*. Buckingham: Open University Press. Kitobda ta'lim tizimida erkaklik va erkaklik rollarining shakllanishi va ularning zo'ravonlik tasavvurlariga ta'siri tahlil qilingan.

5. **Archer, L., & Yamashita, H.** (2003). 'Knowing Their Limits'? Identities, Inequalities and Inner City School Leavers' Post-16 Aspirations. *Journal of Education Policy*, 18(1), 53-69. Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi gender farqlari va zo'ravonlik o'rtasidagi bog'liqlik keng o'rganilgan.

6. **Kenway, J., & Fitzclarence, L.** (1997). Masculinity, Violence and Schooling: Challenging 'Poisonous Pedagogies'. *Gender and Education*, 9(1), 117-133. Tadqiqotda ta'lim tizimida gender stereotiplarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning zo'ravonlik tasavvurlariga ta'siri o'rganilgan.

7. **Raewyn Connell** (2002). *Gender (Short Introductions)*. Cambridge: Polity Press.

Ushbu kitobda gender rollarining ijtimoiy kontekstda qanday shakllanishi va ularning ta'lim tizimidagi stereotiplarga ta'siri keng tahlil qilinadi.

8. **Peter K. Smith, Helen Cowie, Rachel F. Olafsson, & Annamaria P. Liefhoghe** (2016). Gender Differences in Victim and Bully Roles in Bullying: The Importance of Sex-typed Expectations. *Educational Research and Evaluation*, 22(5-6), 474-498.

Tadqiqotda gender stereotiplarining zo'ravonlik tasavvurlariga ta'siri va o'quvchilar orasidagi bullylikka nisbatan munosabatlar o'rganilgan.

9. 6. Волкова Е.Н. Проблемы насилия над детьми и пути их преодоления. —СПб.: Питер, 2008. - 240 с.

10. 15. Николаева Е.И. Создание условий для повышения психологической устойчивости детей к чрезвычайным воздействиям. // Дети в чрезвычайных ситуациях. М-лы первого международного форума. М., 2003, с.99-101.

11. 2. .Баева И. А., Волкова Е.Н., Лактионова Е.Б. Психологическая безопасность образовательной среды: учебное пособие. / Под ред. И.А. Баевой. - М.: Экон-Информ, 2009. — 248 с.

12. 5. Братченко С.Л. Гуманистическая психология как одно из направлений движения за ненасилие. - СПб., 1999 - 52с.

13. 7.Гутгенбюль А. Зловещее очарование насилия. Профилактика детской агрессивности и жестокости и борьба с ними / Перевод с немецкого Н.Скородума. - СПб.: Гуманитарное агентство «Академический проект», 2000. - 202с.

14. 8. Дети России: насилие и защита: М-лы Всероссийской научнопрактической конф. М., 1999 — 281с.

15. 14. Крупина И. В. Образовательная среда семьи и школы как средство воспитания и обучения : Дис.... доктора пед. наук . -М., 2001.-314 с.

TALABALARDA O'Z-O'ZINI BOSHQARISH NAMOYON BO'LISHINING O'ZIGA XOSLIGI

Avezova Baxtigul Xolmurotovna

Urganch davlat pedagogika institute

Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrası

Psixologiya fani o'qituvchisi

90-558-51-52

baxtigulavezova742@gmail.com

Annatatsiya. Har bitta insonning xayoti va faoliyatida atrofdagi borliqning o'zgaruvchan sharoitlarida faollikni tartibga solish muammosi katta ahamiyatga egadir. Zamonaviy qarashlarga ko'ra, insonning butun ruxiyatining mazmuniy tavsifi aynan maqsadga yo'naltirilgan faollikning o'zini o'zi tartibga solish, insonni o'z hayot va faoliyatida erkin va ongli sub'ekt qiladigan "o'zini yaratish" qobiliyatidir. O'z o'zini boshqarish jarayonlarida ruxiyatning nisbiy ravishda ajratiladigan alohida bosqichlari, tomonlari, imkoniyatlari, funksiyalari, jarayonlari, qobiliyatlari va boshqalarning butun boyligidagi birdamligi amalga oshadi. Umuman "o'z o'zini boshqarish" tushunchasi fanlararo xarakterga ega. O'zini o'zi tartibga solish sharoitlarga adekvat o'zgaruvchanlik, xayot va faoliyatning barcha davrlarida egiluvchanlikni ta'minlab beradigan tizimiy jarayondir. Ko'pgina mualliflar ishlarida o'zini o'zi tartibga solishning psixologik aspektini ajratib olish urinishlari mavjud. O'zini o'zi tartibga solish g'oyalarining vujudga kelishi va rivojlanishi psixologik tadqiqotlarning faoliyatni tartibga solish, faoliyatning turi, sabab, iroda, erkinlik, o'zini o'zi determinatsiyalash, javobgarlik va qarorlarni qabul qilish kabi yo'nalishlari bilan chambarchas bog'langan xolda, shuningdek inson faoliyatining umumiy tarkibi va dinamikasi muammosining kontekstida sodir bo'lgan.

Аннотация. Жизни и деятельности каждого человека большое значение имеет проблема регулирования деятельности в меняющихся условиях окружающего существования. Согласно современным воззрениям, содержательной характеристикой всей психики человека является саморегуляция целенаправленной деятельности, способность «творить себя»,

что делает человека свободным и сознательным субъектом в своей жизни и деятельности. В процессах самоуправления реализуется единство отдельных стадий, сторон, возможностей, функций, процессов, способностей и т. д. психики во всем ее богатстве. В целом понятие «самоуправление» имеет междисциплинарный характер. Саморегуляция — системный процесс, обеспечивающий гибкость во все периоды жизни и деятельности, адекватную изменчивость условиям. В работах многих авторов предпринимаются попытки выделить психологический аспект саморегуляции. Это произошло в контексте проблемы общего состава и динамики человеческой деятельности, которая тесно связана с такими направлениями, как самоопределение, самоопределение. ответственность и принятие решений.

Annotation. In the life and work of every person, the problem of regulating activity in the changing conditions of the surrounding existence is of great importance. According to modern views, the meaningful description of the entire psyche of a person is the self-regulation of goal-oriented activity, the ability to "create oneself" that makes a person a free and conscious subject in his life and activities. In the processes of self-management, the unity of the separate stages, sides, possibilities, functions, processes, abilities, etc. of the psyche in all its wealth is realized. In general, the concept of "self-management" has an interdisciplinary character. Self-regulation is a systemic process that provides flexibility in all periods of life and activity, adequate variability to the conditions. In the works of many authors, there are attempts to distinguish the psychological aspect of self-regulation. It happened in the context of the problem of the general composition and dynamics of human activity, which is closely related to such directions as self-determination, responsibility and decision-making.

Kalit so'z. O'z-o'zini boshqarish, prinsiplar, ruhiy xodisalar, muammo, zaiflik, faoliyat, ichki barqarorlik, maqsad.

Ключевые слова. Самоконтроль, принципы, психические явления, проблема, слабость, активность, внутренняя устойчивость.

Key word. Self-control, principles, mental phenomena, problem, weakness, activity, internal stability

Kirish. Qobiliyatlarning birlamchi asoslari bo‘lmish bu ikkita tomon tomoman aniq tarzda bitta yosh bosqichidan ikkinchisiga aylanadi”. Ammo agar kichik sinflardan katta sinflarga o‘tish davrida aqliy faollik oshib kamayishi mumkin bo‘lsa (masalan, atrof muxitga bo‘lgan reaksiyaning ifodaliligi va bevositaligi), o‘zini o‘zi tartibga solish qobiliyati inson asab imkoniyatlarining oshishi bilan birgalikda oshadi va sifatli qayta tuziladi.

“SHunday qilib, kichik sinflar o‘quvchilarning bevositaligi, shoshiluvchanligi va taqlid qilishligi o‘rta sinflarda asta sekinlik bilan o‘zlashtirishni va mustaqil bo‘lishni talab qiladigan yanada uzoq tirishish, ishga intilish bilan almashadi; katta sinflar o‘quvchilari ongli o‘zini o‘zi tartibga solishga bo‘lgan o‘zgacha moyilligi bilan farqlanadilar. Aqliy faollikning ayrim fazilatlar rivojlanishining kechishiga qarab o‘z o‘zini boshqarish imkoniyatlari hamma jihatdan yosh o‘tgan sari oshadi va ko‘payadi.”[12]

Adabiyotlar tahlili. O‘z o‘zini boshqarish haqidagi zamonaviy tasavvur (bu jarayonning tarkibi va mexanizmi, uning shakllanishi va namoyon bo‘lishi haqida) determenizmning umumiy ilmiy prinsiplari va ruxiy xodisalarni o‘rganishda sub’ekt-faoliyatli yondashuv asosidagi rivojlanishga asoslanib tashkil topadi(S.L.Rubinshteyn, M.YA.Basov, A.N.Leontev, B.M.Teplov, A.A.Smirnov, B.G.Ananayev).

Ma’lum darajada o‘z o‘zini boshqarish haqidagi asosiy qoidalarining rivojlanishi ruxiy xodisalarni o‘rganishda maxsuldor bo‘lgan tizimiy yondashuv rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Tizimiy yondashuvdan kelib chiqqan xolda, biz inson faolligining o‘z o‘zini boshqarish aniq tizimiy xususiyatlarga ega bo‘lgan tizim sifatida (butunlik, strukturalilik, bosqichma-bosqichlik, muxit bilan o‘zaro bog‘liqlik), individuallikning turli darajasida shakllangan shaxsiy tarkibning maqsadga yo‘naltirilgan faollik o‘ziga xosliklariga nisbatan ta’sirni amalga oshiradigan inson faolligining mahsus shakli sifatida faraz qilamiz. Tizimiy yondashuvga mos ravishda faollik muammosi “o‘zini o‘zi boshqaradigan tizim tomonidan tashqi sharoitlar yoki ichki o‘zgarishlarga javoban o‘z xarakatini tanlash” muammosi sifatida oldinga chiqadi. [25]

Shaxsda o'zini-o'zi nazorat qilish muammosi xorij psixologlaridan M.I.Bornishevskiy, V.V.Davodov, L.B.Itelson, A.N.Leontev, I.N.Margamen, A.K.Markova, V.I.Straxov, A.Ya.Savchenko, D.B.Elkonin, T.I.Gavalova, A.I.Lipkina, K.A.Maltseva, G.A.Sabieva, A.K.Serdyuk, S.P.Tihenko, P.Ya.Galperin, A.V.Zaxarov, V.G.Romanko, N.I.Kuvshinov va boshqalar tomonidan keng doirada tadqiq qilingan.

Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tutishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya'ni, bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.[45]

Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda shaxsiy dispozitsiyalar ham deb ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ya'ni, ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning xaqiqiy sababini o'zi tushunib etmaydi, "Nega?" degan savolga "O'zim ham bilmay qoldim, bilmayman", deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozitsiyalar yoki ustanovkalar deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo'ladi, ya'ni, dispozitsiya anglangan, ongli hisoblanadi. Shaxs o'z o'zini boshqarishi muammosini tadqiq etishda rus va sobiq ittifoq psixologlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar, jumladan, K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.M.Myasishchev, A.A.Uxtomskiy, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson va boshqalar izlanishlarida ushbu masala yuzasidan tadqiqot olib borib fan psixologiyasini rivojlanishiga katta xissa qo'shganlar.

O'z o'zini boshqarishni tadqiq qilish bilan birga olimlar avvalo uni shaxsning o'z o'zini anglash bilan bog'liqligi g'oyasini ilgari surishgan. Psixologiya fanida o'zini o'zi

anglashning psixologik mohiyatini talqin qilishda ikki xil qarash, yondashish vujudga kelgan bo'lib, ular o'zaro qiyoslanganda bir-biridan katta farqqa ega. Birinchi yondashuv tavsifiga qaraganda, o'zini o'zi anglash – bu o'z yo'nalishini o'zgartirgan ongning aynan o'zidir. SHuning uchun u shaxs ongining maxsus ko'rinishidan boshqa narsa emas. Bu keng tarqalgan nazariya L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, Ye.V.SHoroxova, I.I.Chesnakova, V.V.Stolin ta'limotlarida hamda ularning shogirdlari ilmiy izlanishlarida tadqiq qilib kelingan.

Mazkur muammoga ikkinchi yondashuvning asoschisi S.L.Rubinshteyn bo'lib, keyinchalik uning shogirdi K.A.Abulxanova-Slavskayaning izlanishlarida ijodiy tarzda rivojlantirildi. S.L.Rubinshteynning fikricha, ong va o'zini o'zi anglash jismonan real hamda haq-huquqqa ega (yuridik) shaxsga taalluqli xususiyatlardan biri bo'lib, ular uning turmushi va faoliyatini “qurol” sifatida ta'minlab turuvchi ruhiy jarayondir. Bizningcha, S.L.Rubinshteyn ta'limoti o'zini o'zi anglashning psixologik mohiyati yuzasidan adekvat ma'lumot berish imkoniyatiga ega. Ta'limotga asoslanib, muammoni tadqiq qilish uning ilmiy-nazariy, amaliy-tatbiqiy jihatlarini ochishga xizmat qiladi. [25]

Birinchi yondashuv talqiniga qaraganda, o'zini o'zi anglash hodisasi vujudga kelishining bosh sababi – bu inson bilan jamiyat o'rtasidagi munosabat nomutanosibliги hisoblanadi. Inson muayyan jamiyatda, ijtimoiy muhitda istiqomat qilar ekan, odatda, shu muhit qonun-qoidalariga, tartib-intizomlariga rioya qilishga majbur. U ana shularning negizida faoliyatini, xulq-atvorini, shaxslararo munosabatini boshqaradi. O'z xulq-atvorini, faoliyatini, munosabatini boshqarish ularni yuzaga keltiruvchi ehtiyoj, xohish, motiv, mayl, maqsad, qiziqish kabilarni ham idora qilishdir. Bunday mazmundagi o'zini o'zi anglash va uning regulyatsiyasi ehtiyojning ongdagi ifodasini ham, o'zaro munosabatini ham tartibga solishni taqozo etadi. Hodisa paydo bo'lishining bosh sababi ham, yo'nalish ob'ekti ham ongdir.

Boshqacha so'z bilan aytganda, ongning ichki barqarorligi, barqarorlikning ichki muvofiqligini shakllantiradi. Ushbu ta'limot namoyandalari talqinida ongning ichki barqarorligini vujudga keltiruvchi tarkiblar yuzasidan olinadigan ma'lumotlarga e'tibor qaratiladi. Bunday ma'lumotlarni shaxs o'zlashtirgandan keyin ular mazmunan

har xilligi sababli qarama-qarshilikka uchraydi. O'zaro mutanosiblikni ta'minlash uchun odam ijtimoiy ongiga murojaat qiladi va shu yo'l bilan ma'nolar o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etadi.

SHuning uchun L.S.Vigotskiy o'zini o'zi anglash har xil ma'nolar o'rtasida birlikni vujudga keltirish jarayoni sifatida va o'zlashtirilgan ong tariqasida namoyon bo'ladi, deydi. A.N.Leontev talqinicha, individual ongning mohiyati bilan mazmuni o'rtasidagi ziddiyat o'zini o'zi anglashning sababchisidir. V.V.Stolinning uqtirishicha, o'zini o'zi anglashning negizida "Menlik"ning mazmunlari o'rtasidagi ziddiyat yotadi. B.G.Ananevning mulohazalariga qaraganda esa, o'zini o'zi anglashning vujudga kelishi omili – odamning individual xususiyatini, faoliyat sub'ektiligi, shaxslilik tarkib topishidagi notekislik va geteroxronlik. Uning mulohazasicha, o'zini o'zi anglash ana shu uchala xususiyatni o'zaro muvofiqlashtiradi va xuddi shu tariqa ongning individualligini ta'minlab turadi.

Ichki o'zini boshqarish mexanizmi asosini uchta integral sifatlar tashkil etadi (rivojlanish psixogen omillari): ehtiyojlar, yo'nalganlik, Men-konsepsiyasi.

Ehtiyojlar-bu individning biror narsaga talabini ifoda etuvchi va odamning psixik kuchi va faolligi manbai hisoblangan uning fundamental xususiyatidir. Ehtiyojlar moddiy (oziqlanish, kiyinish, uy-joy), ma'naviy (o'rganish, estetik xordiq olish), fiziologik va ijtimoiylarga ajratiladi.

Yo'nalganlik shaxsning harakatlari va ishlarini yo'naltiruvchi, mustahkam va vaziyatlarga nisbatan bog'liq bo'lmagan sabablar to'plamidan iborat bo'ladi.

Qiziqishlar-yangi faktlar bilan tanishishga, voqelikni ancha to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir. Shaxsning yo'nalganlik sathida shaxslararo munosabatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsga nisbatan munosabat iloji boricha talabchanlik va unga nisbatan iloji boricha xurmat hamda ishonch asosida bo'lishi kerak.

Shaxsning "Men"-konsepsiyasi - bu shaxsning uning asosida o'z xulqini tashkil etadigan o'zi haqidagi o'zining mustahkam, ozmi-ko'pmi darajadagi anglab yetadigan va kechinmalar tasavvurlar sistemasidir.

Yuqoridagi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuqtai nazardan o'z- o'zi bilan amalga oshiriladigan ichki dialog alohida o'rin tutadi.

O'z-o'zi bilan dialog- oddiy til bilan aytganda, o'zi bilan o'zi gaplashishdir. Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalga oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog muhim regulyativ rol o'ynaydi. Demak, shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning obyektivligiga bog'liq tarzda o'z-o'zi bilan muloqotga kirishib, shaxs o'zini nazorat qila oladi. Hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham, o'ziga xolis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan hatolik uchun o'z «ich-etini yeb tashlaydi» Ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlar quyidagilar.

Natija. shaxslararo munosabatlar orasida muloqot uslubining o'zgarishi, muayyan kasbiy sohalardagi bilim, ko'nikma va malakalarning ortishi, rahbar, menejer, tadbirkor, kadrlar menejeri, psixolog, murabbiyning faoliyati kabilarda, ayniqsa, shiddatli sharoitlarda juda murakkab faoliyat turlarida yoshlarning peshqadamligi fanning asl mohiyatini tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bugungi globallashuv davri shaxslarida muloqotga bo'lgan (ishlab chiqarish, ta'lim-tarbiya jarayoni, oilaviy munosabatlar, emotsional sferaning barqarorligini ta'minlash kabilarda) ehtiyojlarning kundan- kunga oshib borishi, ular o'rtasida yuzaga keladigan turli nizoli vaziyatlarni bartaraf etish jarayonida albatta psixologik treninglarning imkoniyatlarini kengligi ham hech kimga sir emas.

Psixologik adabiyotlarni tahlil qilganimizda treningga oid turli qarashlarni, amaliy tavsiyalarni uchratamiz. Xo'sh trening o'zi nima? Treningni tashkil qilishdan maqsad nima? Trening shaxs barkamolligini shakllantirib bera oladimi? kabi savollarga duch kelamiz. Avvalo, trening - bu odamning muloqot uslubini o'zgartirishga, uyg'unlashtirishga, kerakli ko'nikmalarni singdirishga va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladigan yoki ong osti xarakterga ega bo'lgan qarama-qarshiliklarni hal qilishga qaratilgan yorqin, hissiy jihatdan jadal o'quv faoliyat turi deb ta'kidlasak ham xato bo'lmaydi.

Trening - bu turli faoliyat sohaslarida keng qo'llaniladigan juda mashhur va keng tarqalgan o'qitish shaklidir. Kasbiy muvaffaqiyat ko'plab tarkibiy qismlardan iborat, shu bilan birga, trening texnologiyasi odamning kayfiyatini, muayyan faoliyat turiga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini rivojlantirish zarurligini anglashga yordam beradigan o'quv shakllardan biridir. davrda insonlarni eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo'lish, o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga intilishining kuchayishi, bo'lajak kadrlarni kelgusi faoliyatlarini samarali amalga oshirishga tayyorlash, shuningdek, rahbar kadrlarni samarali boshqarish usuliga o'rgatish kabi.

Hozirgi masalalarni yechimini topish borasidagi ishlardan biri - bu ijtimoiy psixologiyaning asosiy sohasi bo'lgan psixologik treninglarni tashkil etishdir. XXI asrda kishilarning eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning muloqot sirlaridan xabardor bo'lish va o'zgalarga samarali ta'sir etishga bolgan intilishi yanada oshdi. Birinchidan, axborotlashgan jamiyatga o'tganligimiz tufayli axborotlarning ko'pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma'lumotlarni saralash, u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Ikkinchidan, turli kasb faoliyat sohasida ishlayotgan odamlar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitida oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab etadi. Uchinchidan, hozirda shaxslarni ruhiy salomatligini saqlash maqsadida hissiy – emotsional zo'riqishlarni oldini olish va bartaraf etishni rivojlantirish kabilar dolzarb masalalardandir.

2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish to'grisidagi konsepsiyning qabul qilinishi va uni amalga oshirish maqsadida barcha ta'lim - tarbiya muassasalari, korxona va tashkilotlar, oila institutlari, hamda mahalla uyushmalarida aholini ruhiy zo'riqishlarini bartaraf etish, natijada aholining salomatligini, ish unumdorligini oshirish keng targ'ib qilinmoqda. Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda psixologik treningning o'z orni va ahamiyati katta.

Muhokama. Boshqacha aytganda, har qanday muammoli vaziyatda shaxsni faqat o'zidan yordam olishga o'rgatish demakdir. Misol qilib abiturentni birinchi yili

o'qishga kira olmaganligi, lekin o'zidagi qiziqish, ishtiyoq, intilish motivlarini sondirmagan holda, muvaffaqiyatga erishish motivlarini ustunligi natijasida qaytadan harakatga kelishi tushuniladi. Treninglarda shaxsiy o'sishni rag'batlantirish mumkin, ammo tezlik har doim murabbiyning sa'y-harakatlari bilan emas, balki shaxsning ichki imkoniyatlari bilan belgilanadi. "Men" konsepsiyasini shakllantirishda nafaqat shaxsni barkamollashtiruvchi treninglardan foydalanish, balki emotsional soha treninglarini ham qollash davomida shaxsning ichki va tashqi kechinmalaridagi qarama – qarshiliklarni ham pozitiv tomonlama engib o'tish imkonini beradi. Yoki shaxs o'zini qiynayotgan, boshqalarga aytishni uyat hisoblagan kechinmalarini aynan trening orqali tashqariga chiqarish imkoniyatini beradi. Natijada nevroz bilan bog'liq bo'lgan holatlarning oldi olinadi. Psixologik treninglarning asosiy maqsad va vazifasi ham shaxsda yuzaga kelgan salbiy holatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglarni samaradorligi trener va ishtirokchilarning qobiliyatlari, operativ fikrlashlari, hamjihatligi, samimiy bir – biriga munosabati, har bir shaxsning trening jarayonida o'zini nazoratga olishi kabilar bilan belgilanadi.

Xulosa. 1. Shaxs psixologiyasida shaxsga xos bo'lgan o'zini o'zi boshqarish tizimini shakllantirish bilan bog'liq nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida ruxiy faollikni shaxsning xulk atvori va iroda tushunchasi mazmuni va uni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi va bu muammoni psixologik tayyorgarligiga nisbatan qo'llash shart-sharoitlari belgilandi.

2. Tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lmish o'zini o'zi boshqarish tizimi yoshga bog'liq xususiyatlari bilan birga bu tizimning nerv fiziologik asosini, shaxsning temperamenti va irodasi bilan bog'liq namoyon bo'lishi nazariy –ilmiy jixatdan asoslandi.

3. Oliy ta'lim tizimida talabalarning ijtimoiy munosabatlarga kirishuvida ma'lum xulqiy odatlarni shakllantirishning asosiy yo'nalishi sifatida psixologik jarayonlarni faollashtirish (o'zini boshqarish, xarakter, temperament, qobiliyatlariga munosabat bildirish va x.k) o'qish davrining birinchi bosqich davridayoq rivojlanuvchi g'oyalarni amalga oshirish, o'zini o'zi boshqarish tizimini rivojlantirish uchun pedagoglarga psixologik bilim beruvchi trening va mashg'ulotlar bajarishga

yo'naltirilgan tizim kerak. Amaliy tavsiya sifatida pedagog psixologlarga talabalarda o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liq psixologik treninglar ishlab chiqish rejaga kiritildi.

4. Shunday qilib talabalarda o'z o'zini boshqarishtizimi va uni rivojlantiruvchi omillarini o'rganish dolzarb, turli nuqtai nazardan o'rganilayotgan va keng qamrovli ilmiy muammo ekanligini e'tirof etish mumkin. Bu muammo psixologiya va pedagogikaning turli sohalarida jumladan, fiziologiya, psixokorreksiya, umumiy va yosh psixologiya, patopsixologiya, tibbiyot psixologiyasi tomonidan kompleks o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yhati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72 – sessiyasidagi nutqidan . 2017 yil 20 sentyabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

3. Абрамова Г.С., Юдчиц Ю.А. Психология в медицине. М.: Кафедра-М. - 1998.

4. Апчел В.Я., Цыган В.И. Стресс и стрессоустойчивость человека. М., 1999

5. Бодров В. А. Информационный стресс. М., 2000.

6. Бабич О.М. Методы саморегуляции и психологической разгрузки. Воронеж: Издат.-полиграф. центр Воронежского гос. ун-та, 2008.

7. Charlesworth E.A., Ph.D., Nathan R.G., Ph.D. – Stress management. A Comprehensive Guide to Wellness, 1986.

8. Coleman Dr. V. Overcoming Stress. London, 1988

9. Cox T. Stress. London and Basingstoke, 1987.

10. Китаев Смык Л.А. Психология стресса. М., 1980.

11. Корыстов Ю.Н. Эмоции, стресс, курение, потребление алкоголя и рак - корреляционные и причинные связи // Журнал ВНД им. Павлова, 1997. - №4. - С.627-657

12. Конопкин О.А. Общая способность к произвольной саморегуляции как фактор субъектного развития. //Вопросы психологии, 2004
13. Крюкова Т.Л., Сапоровская М.В., Куфтяк Е.В. Психология семьи: жизненные трудности и совладание с ними. М., 2005.
14. Лазарус Р.С. Эмоциональный стресс. М., 1970.
15. Леонова А.Б., Кузнецова А.С. Психопрофилактика стрессов. М., 1993.
16. Никифоров Г.С. Психология профессионального здоровья. СПб.: Речь, 2006.
17. Nishonova Z.T. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. Toshkent. Nizomiy nomli TDPU, 2004 y -126-b
18. Nishanova Z., Kamilova N, Alimova G. Psixogigiyena. O`quv qo`llanma. –Toshkent, “Fan va texnologiyalar Markaziy bosmaxonasi” 2010.-247 b
19. Меерсон Ф.З. Адаптация, стресс и профилактика. М.,1981.
20. Психология мотивации и эмоции / Под ред.Ю.Б.Гиппенрейтер, М.В.Фаликман. М, 2002.
21. Психология эмоций. Хрестоматия / сост-ред В.К. Вилюнас СПб, 2007
22. Пичугин В. Г. Эмоциональная устойчивость. Техника развития. – М.: Вершина, 2009.
23. Разумов С.А. Эмоциональный стресс в условиях нормы и патологии человека. Л.,1976.
24. Рутман Э.М. Надо ли убегать от стресса. М., 1990.
25. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб: Изд-во "Питер", 2000. – 578 с
26. Смирнов В. Н., Петухов Е. В. Психология в деятельности сотрудников правоохранительных органов. – М.: Юнити-Дана, 2010. – 208 с.
27. Селье Г. Стресс без дистресса. М., 1990
28. Селье Г. Когда стресс не приносит горя. – Неизвестные силы в нас. М., 1992, с.104-135.

29. Селье. Г. Очерки об адаптационном синдроме. Москва, Медгиз, 1960.
30. Суворова В.В. Психофизиология стресса. М., 1975.
31. Судаков К.В. Системные механизмы эмоционального стресса. – М., 1981.
32. Taylor S.E. Health Psychology. New-York, 1995.
33. Тарасов Е.А. Как победить стресс. – М.: Айрис-пресс, 2002.
34. Усманова Э.З. Стресс и личность. – Психологияда шахс индивидуаллиги шаклланишининг долзарб муаммоллари. Илмий-амалий конференция материаллари, май, 2012. Тошкент, 2013, б.230-233.
35. Усманова Э.З. Стресс и работа: пути уменьшения и преодоления стресса. – Педагогик таълим, 2005, № 2.
36. Усманова Э.З. Стресс и семья. – XXI аср психологияси: назария, амалиёт, истиқболлар. Ўзбекистон Миллий университетининг 95 йиллиги ва Психология кафедрасининг 40 йиллигига бағишланган Халқаро илмий амалий конференция материаллари, 22 май 2013 йил. Тошкент, 2013, б.331-333.
37. Усманова Э.З. Факторы, смягчающие влияние стресса.- «Современные тенденции развития гуманитарных наук», Материалы Международной Научно-Практической Конференции, М., 2013, б.157-162.
38. Усманова Э.З. К вопросу о психологических путях борьбы со стрессом.- Психология Фани 21 асрда. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари (2-3 октябрь, 2002 йил), Тошкент, 2002
39. Управляем стрессом. – «Книги «Искателя», 2002.
40. Водопьянова Н.Е., Старченкова Е.С. Синдром выгорания: диагностика и профилактика. 2-е изд. – СПб., 2008.
41. Василюк Ф. Э. Психология переживания. М., 1984.
42. Xaydarov F., Xalilova N Umumiy psixologiya (darslik) Toshkent.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2010.-335-b
43. Зильберман П.Б. Эмоциональная устойчивость оператора. // Очерки психологии труда оператора.- М.: Наука, 1974.

44.G'oziev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi): Ped. institutlari va universitetlarning talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent, «O'qituvchi» 1994. —224 b.

45.G'oziev E. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik, 1- kitob Toshkent «Universitet» nashriyoti , 2002.-284 b

46.G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent 2010.- 360-b

47.G'oziev E. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik, Toshkent ««O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti , 2010.-544 b

58.SHrayner K. Kak snyat stress. M.,1993.


59.Sarafino E.P. Health Psychology. New-York - Toronto, 1998.

50.Shaffer M. Life after Stress, New-York - London, 1982

51. Шарай В. Б. Функциональное состояние студентов в зависимости от форм организации экзаменационного процесса. М., 1979.

52. Шойфет М.С. Самогипноз. Тренинг психофизической саморегуляции. — СПб.: Питер, 2003.

53.Щербатых Ю. В. Психология стресса и методы коррекции. — СПб.: Питер, 2006.



YETUKLIK DAVRINING YETAKCHI FAOLIYATI VA RIVOJLANISHNING IJTIMOIIY SHART-SHAROITLARNING MANBALARDA O‘RGANILISHI

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ataxanova Lobar Egamberganovna

Toshkent gumanitar fanlar

universiteti

“Amaliy va gumanitar” fanlar kafedrası stajyo‘r o‘qituvchisi

To‘rtko‘l, O‘zbekiston

EL:ataxanovalobarxon@gmail.com

Annotatsiya

Yetuklik ontogenezdagi nisbatan uzoq davom etadigan davirlardandir. Bu yosh davirlarida rivojlanishning ijtimoiy vaziyati insondan ishlab chiqarish sohasiga, mehnat faoliyati sohasiga, o‘z oilasini qurishi va farzandlar tarbiyalashga faol kirishishni talab qiladi. Shuningdek bu davr inqirozi turlicha keskinliklarda nomoyon bo‘lishi mumkun.Inqirozning keskinlashuviga tasir ko‘rsatuvchi ommillar muvjud bo‘lib u o‘z navbatida shaxsning yuksak darajada rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Yetuklik davri, ontogenez, rivojlanishning geteroxronligi, inqiroz,emotsional xavfsizlik, inson,prosotsial,psixika, yosh psixologiyasi,sotsiol.

Аннотация

Приод зрелости – один из относительно длительных периодов онтогенеза. Социальная ситуация развития в этом возрасте требует от человека активно заниматься производством, трудом, строить семью и воспитывать детей. Не исключено также, что кризис этого периода может протекать в разной напряженности.

Ключевые слова: Приод зрелости, онтогенез, гетерохронность развития, кризис, эмоциональная безопасность, человек, просоциальная психика, психология юношества, социальный.

Annotation

Adolescence is one of the relatively long periods of ontogenesis. The social situation of development at this age requires a person to actively engage in production, work, build a family and raise children. It is also possible that the crisis of this period may occur in different tensions.

Key words: Adolescence, ontogenesis, heterochrony of development, crisis, emotional security, human, prosocial, psyche, youth psychology, social

Bugungi kunda inson salomatligiga tasir ko'rsatuvchi omillar juda ko'pdir Inson-biosotsiol mavjudotdir.Hozirgi psixologiyaning yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolatiga, shaxsni tarkib topishiga sotsiol-psixologik nuqtayi nazrdan yondashib,yosh davrlarning o'ziga xos tasnifini yaratadi.

Yetuklik tushunchasi va yetuklikka erishish mezonlari.Rivojlanish jarayonining ko'p qirraliligini hisobga olgan holda yetuklikning ko'pgina belgilarini ajratish mumkin[4]

Yetuklik davrida rivojlanishining ijtimoiy vaziyati ichki tomondan mustaqillikka intilish, ma'suliyat hissining kuchayishida ifodalanadi. Yetuklik davrining asosiy kechinmalaridan biri o'z hayoti va yaqinlarining hayoti uchun shaxsiy ma'suliyatni anglashi, ma'suliyatni qabul qilishiga tayyorliki bilan boshqa davrlardan ajralib turadi.

Levinsoning fikricha, o'tish davrlarida inson stresslarni boshdan kechiradi, chunki bu davrda maqsadlar, qadiryatlar, hayot tarzi qayta quriladi va qayta baholanadi. Insonda inqiroz keskinligi turlicha namoyon bo'ladi.Misol tariqasida shuni aytish mumkunki pedagog pedagogik faoliyatida yuzaga keladigan turli xil omillar bu davridagi insonlarda inqirozning nisbatan keskinlashuviga tasir ko'rsatadi natijada shaxsning yetuk darajada rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi.

Yetuklik davri o'zgachaliklari haqida olimlarning bir qancha fikir mulohazalari yoritilgan.Olimlarning takidlashicha yetuklik davri eng uzoq davom etadigan davr xisoblanadi. Yetuklik yoki hayotning ikkinchi yarimi deb nomlanuvchi bu davr o'zgachaliklari va inqirozlari haqida psixolog olimlarning qarashlari bayon qilingan.

G.Olportning ta'kidlashicha, shaxsning yetukligi motivatsiyaning funksional avtonomligi bilan belgilanadi. G.Olportning fikricha ,o'z-o'zini namoyon qiladigan shaxs quydagi xislatlarga ega bo'ladi:

- A) tashqi dunyoga qiziqish, Men hissi kengaygan,
- B) boshqalarga nisbatan g'amxo'rlik (hamdardlik, hurmat, chidamlilik)
- V) emotsional xavfsizlikni fundamental his qilish (o'zini nazorat qilish, o'zini qabul qilish)
- G) borliqni real idrok qilishi va harakatlardagi faollik
- D) O'z-o'zini tushunish, ichki tajribasini vaziyatga ko'chirish
- E) "hayot falsafasi", tajribani tartibga soladi, tizimlashtiradi va individual xatti-harakatlarga ma'no beradi.[1].

R.Pek yosh davrlarida yuzaga keladigan 4 xil inqiroznining kuzatilishini va ularning hal qilinishi navbatdagi shaxsiy rivojlanish uchun zarur sharoit hisoblanadi:

- insondan donolikni hurmat qilishi rivojlanadi (jismoniy kuchga nisbatan)
- jinsiy munosabatlarning ijtimoiy munosabatlarga almashinuvi (jinsiy rollarning susayishi);
- emotsional egiluvchanlikni saqlash
- ruhiy egiluvchanlikka intilish (psixik rigidlikni bartaraf etish), xulq-atvorning yangi shakllarini izlash[2].

G'arb psixologiyasida yetuklik davridagi inqirozlarni o'rganish yosh davridagi rivojlanishni tahlil qilishida asosiy yondashuvligi bejiz emasdir. Inson hayotining "ikkinchi yarimiga" K.Yung ham juda qiziqqan. Yani hayotning o'rtasini u "ruhning chuqur va qiziqarli o'zgarishlari" ro'y beradigan kritik davr sifatida qaragan.[3]. K.Yuning fikriga binoan hayotning ikkinchi yarimida inson shaxs turli elementlarning muvozanati va integratsiyasi yordamida o'z shaxsining rivojlanishga erishishi mumkin. Ammo shaxsning yuksak darajasiga hamma ham erisha olmaydi. Chunki inson turli xil yosh davrlaridagi inqirozlarning turli xil darajada yengib o'tishi, inqirozning kechishi va davomiyligi shaxs hayotidagi sharoitlarga bog'liqdir. Inqirozni tezlashtiradigan sharoitlar sirasiga shaxsning sog'liqning to'sadan o'zgarishi, ijtimoiy va siyosiy hodisalar, yashash sharoitining o'zgarishi, ish joyidagi muhitning

hamda kishilar o'rtasidagi munosabatlari. Bular natijasida inqirozlar kechikishi yoki tezalashtirish holatlari kuzatilishi aniqlangan.

Inqirozlarning namoyon bo'lishi turli davrlarda turlicha namoyon bo'ladi:

Yetuklik davridagi inqirozlarning bolalik davridagi inqirozlardan farq qiladi misol uchun

-yetuklik davrida asosiy faoliyat turi doimiy bo'ladi

-yetuk shaxs asosiy faoliyat turning ichida chuqur o'zgarishlar ro'y beradi

-yetuklik davri inqirozlari uzoqroq vaqtda (7-10y) paydo bo'ladi.

-inqirozlar orasidagi intervallarda rivojlanish tekis kichadi

-yetuklik davridagi inqiroz anglangan holda, yopiq kichadi, atrofdagilarga keskin namoyon qilinmaydi

-inqirozdan chiqish, uni bartaraf etish shaxsning ichki faolligiga, o'zigagina bog'liqligi.

Yetuklik insoning psixologik va psixofiziologik rivojlanishi qarama-qarshi va murakkab strukturaga ega bo'lib, bilish qobiliyati va alohida funksiyalar funksional darajasining susayishi, barqarorlashishi va kuchayishi jarayonlarining almashinishi birgalikda kelishini kuzatish mumkin.

-rivojlanishning geteroxronologik (bir xilda kechmasligi)-insoning individ, shaxs va faoliyat sub'ekti sifatida yutuqlari va rivojlanishi darajasi mos kelmaydi.[1]

Eriksoning takidlashicha o'rta yetuklik davrida avlodni saqlash hissi kuchayadi, kelgusi avlod va uning tarbiyasiga qiziqishi ortadi.

Hayotning bu yetuklik davrida turli xil sohalarda yaratuvchanlik va mahsuldorlik bilan ajralib tushrishini aytgan.

A.V.Petrovskiy shaxs shakllanishining prosotsiol (ijtimoiy qoidalarga muvofiq) va sotsiol (aksil ijtimoiy) bosqichlari ham bo'lishi mumkinligini isbotlab berishga harakat qiladi: Shaxsning kamol topishi uchta makrofazadan iboratligini qayd etib 1-bolalik davriga duch kelishini, unda ijtimoiy muhitga moslashish, ko'nikish (adaptatsiya) ro'y berishini, 2-o'smirlarga xos individuallashtirish, 3-o'spirinlikda, ya'ni yetuklikka intilish davrida o'ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish (birlashtirish) xususiyatlari paydo bo'lishini bayon qilgan[5].

Emotsional holatda o'zini o'zi nazorat qilish so'rovnomasi yordamida shaxsning nafaqat kasbiy faoliyatda, balki ijtimoiylashuv jarayoni va shaxsiy rivojlanishda ham o'z hissiyotlarini nazorat qilish darajasi aniqlanadi. So'rovnoma 36 ta hukmdan iborat bo'lib, har birida 3 xil variantda javob berish imkoniyati mavjud. Mazkur savolnoma orqali shaxsning turli vaziyatlarga nisbatan emotsional holatda, faoliyatda va ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish darajasi o'rganildi. Quyida jadvalda natijalar matematik-statistik tahlili Mann Uitni mezonida keltirib o'tildi.

Emotsional holatlarda o'z-o'zini nazorat qilishni namoyon bo'lishini o'rganish metodikasi natijalar tahlili (Mann Uitni mezonida bo'yicha $n=62$)

Shkalalar	Guruhi	Soni	O'rtacha rang	Ranglar summasi	U	p
Emotsional holatda o'z-o'zini nazorat qilish	Eksperiment guruhi	32	23,72	759,00	231,000	0,00**
	Nazorat guruhi	30	39,80	1194,00		
	Jami	62				
Faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish	Eksperiment guruhi	32	29,28	937,00	405,900	,315
	nazorat guruhi	30	33,87	1016,00		
	Jami	62				
Ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat qilish	Eksperiment guruhi	32	25,02	800,50	273,500	,003**
	Nazorat guruhi	30	38,42	1152,50		


	Jami	6			
		2			

Izoh: **- $p < 0,01$

Emotsional holatlarda o'z-o'zini nazorat qilishni namoyon bo'lishini o'rganish metodikasi natijalar tahliliga ko'ra eksperiment va nazorat guruhleri orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi ($u=231,000$; $p < 0,01$). Ya'ni davlat ixtisoslashmagan MTT pedagog xodimlarida maxsus ixtisoslashgan MTT pedagog xodimlariga qaraganda emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish ko'rsatkichi yuqori darajada bo'lar ekan. Ushbu holatni izohlashda maxsus ixtisoslashgan MTT pedagog xodimlari ish faoliyatida yuzaga keladigan vaziyatli to'siqlarning ko'pligi ularda hissiy emotsional beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa ularning turli emotsional holatlarda o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini pasayib ketishi bilan izohlanadi.

Faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish shkalasi bo'yicha eksperiment va nazorat guruhleri orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($u=409,000$; $p > 0,05$). Davlat ixtisoslashmagan MTT pedagog xodimlarida va maxsus ixtisoslashgan MTT pedagog xodimlarida ham faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish xususiyatining bir xilda namoyon bo'lishi aniqlandi.

Shuningdek, ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat qilish shkalasi bo'yicha eksperiment va nazorat guruhleri ahamiyatli tafovutlar kuzatilganini keltirib o'tishimiz mumkin ($u=272,500$; $p < 0,01$). Unga ko'ra davlat ixtisoslashmagan MTT pedagog xodimlarida va maxsus ixtisoslashgan MTT pedagog xodimlariga qaraganda ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat qilish yuqori darajada ekanligi kuzatildi. Mazkur tahlilni maxsus ixtisoslashgan MTT pedagog xodimlarining qisqartirilgan ish kuni va alohida ta'limiy ehtiyojli bolalar bilan ishlash hisobiga ularda shaxslararo munosabat ko'rsatkichining pasayishi, shu orqali ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat qilish xususiyatining yaxshi rivojlanmaganligi bilan izohlashimiz mumkin. Quyida diagrammada ishonch darajasidagi tafovutlar keltirib o'tildi.



Yuqoridagi tadqiqotlarga binoan yetuklik davridagi o'zgachaliklar hamda bu davr inqirozlari shaxsda namoyon bo'lishi turlichadir. Yetuklik davri eng uzoq davom etadigan davr bo'lib inson umrining deyarli yarimini tashkil qiladi bu davrda shaxs turli faoliyatlar bilan shug'ulanadi. Biz aynan maxsus hamda ommaviy maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan xodimlarda ushbu so'rovnomani o'tqazdik. Olingan tadqiqotlar natijasiga binoan eksperiment hamda nazorat guruhlarida farqlar sezildi. Bu shuni anglatdiki shaxsda yuzaga keladigan emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish hamda o'zini namoyon qilishi ijtimoiy muhitga, ijtimoiy shart sharoitga hamda faoliyat olib barayotgan muhitga ham bog'liqligini yaqol ko'rishimiz mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishanova.Z.T Kamilova.N.G Abdullayeva.D.U Xolnazarova.M.X" Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya " Toshkent-2017 C 306-313
2. Grasi J.Craig Human development. Prentice-Hall. 1996. p.787-788
3. K.Yung .проблема души нашего времени-М :1993.C.467
4. Г.Крайг. психология развития С.647-653
5. Amirsaidova.SH.M"Maxsus psixologiya" Toshkent 2019.C. 20-21

OILAVIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA NIZOLARGA KONSTRUKTIV YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING RO'LI VA VAZIFALARI

Navbahar Salayeva-psixologiya fanlari nomzodi, Urganch davlat universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasida katta o'qituvchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy munosabatlar tizimida konstruktiv yondashuvni shakllantirishda ayollar tomonidan bajariladigan vazifalar hamda ayolning oiladagi o'rnini, roli va munosabatlari o'z ifodasini topgan.

Аннотация. В данной статье посвящена одной из актуальных проблем семейной жизни женщин и её обязанностей на основе национальных традиций. Также, даны определенные рекомендации по воспитанию детей в семье.

Annotation. This article deals with the actual problems of family life of women and their responsibilities on the basis of national traditions. Also there are given recommendations on bringing up children in families

Kalit so'zlar: oila, ayollar vazifalari, muloqot, munosabat, faollik, tarbiya uslublari, omillar, xususiyatlar, ijtimoiylashuv, rol.

Ключевые слова: семья, функции женщин, общение, взаимоотношение, виды воспитания, факторы, особенности, социализация, роль.

Key words: Family functions of women communication relations, types of bringing up, factors, peculiarities, socialization, role.

KIRISH(ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Bugungi kunda keng jamoatchilik hamda sotsiologlar, psixologlar orasida qizgin munozaralarga sababchi bo'layotgan oiladagi salbiy munosabatlar, oilada ba'zi a'zolarining ayrim yashashlari, janjal va nizolar, kelishmovchilik holatlarining ko'plab uchrashi jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Erkak va ayol o'rtasida salbiy munosabatlar, kelin va qaynona o'rtasidagi nizolar, farzand va ota-onalar o'rtasidagi tushunmovchiliklar bazi oila a'zolarining ayrim yashashlariga sabab bo'lmoqda, oilada turli inqiroz holatlarini va vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli oila a'zolarining ba'zilari psixik nosog'lom muhitni boshidan kechirishmoqda. Ba'zi oilalarda farzandlarning oilaviy

baxt, osoyishtalik, tinchlik va keraklilik xususiyatlaridan to'liq bahramand bo'la olmayotganliklari sababli oila-nikoh munosabatlarining tartibdan chiqib ketish holatlar kuzatilmoqda.

Ota-onalar farzandlar manfaatiga zid chiquvchi ba'zi holatlarni ham yuzaga keltirmoqdalar. Ba'zida o'z farzandlarining fikrlarini inobatga olmaslik, ularning tarbiyasi va ta'limiga oid masalalarni o'zicha hal qilish, farzandlarining birini, ikkinchisidan ustun qo'yish, ular o'rtasida nizo yoki kelishmovchilik kelib chiqishiga sababchi bo'lishdek holatlar ba'zan bo'lsa ham uchramoqda. Ota-onalar ba'zida uylangan va turmushga chiqqan farzandlariga munosabatlarini o'zgartiradilar, ularni o'z himoyasidan ajratishga va ularga nisbatan boshqacha munosabatlarni yuzaga keltirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS). Oila va nikoh masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda oilaviy munosabatlar hamda uning mazmun-mohiyatini belgilab beruvchi barcha tushunchalar atroflicha e'tirof etishgan. Jumladan E.G'G'oziyev oilaviy munosabatlarni ijobiyligini ta'minlovchi omillarni va ularning psixologik komponentlarini yoritib bergan. V. Karimova o'z izlanishlarida oila turlari va ularning xususiyatlari, er-xotin munosabatlarining o'ziga xos psixologik jihatlari keltirib o'tilgan. G.'B. Shoumarov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda esa, oilaning maqomi, oiladagi muloqot turlari, oilada shaxsning shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar, oilada yuzaga keladigan nizolar va ularni bartaraf qilish haqidagi qarashlar o'z ifodasini topgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan oilada sodir bo'ladigan ijtimoiy –psixologik hodisalar oila-nikoh masalariga ayniqsa, ayolga taalluqli bo'lgan bir talay vazifalar, urf-odatlar, dinamik streotip tarzidagi udumlarni yuzaga keltiradi. Zamonaviy va namunali oilani shakllantirishda ayol zimmasiga yuklanadigan vazifalarni yuqori darajada samarali, tizimli, sifatli amalga oshirish esa turli psixologik mexanizmlarni keltirib chiqaradi. Ayol kishi bir vaqtning o'zida olti yoki yettita rolni bajaradi. U ayol, opa, kelin, suyukli yor, qaynona, ona, amma, xola kabi rollarni ijro qiladi.. Ayol kishi tomonidan amalga oshiriladigan har bitta rol va vazifa uning oiladagi o'rnini, rolini, shaxsiy

sifatlari, xususiyatlari, ma'naviyati, ma'rifati, obro'sini, martabasini, kelajagini, mavq'e, shaxsiy ustanovkalarini hamda o'zligini namoyon qiladi. Oilaviy munosabatlarning muayyan shaklda saqlanib turishiga ta'sir ko'rsatadigan ayolning o'rni, nufuzi bir qancha tafovutlarga egadir. Ayol o'zining shaxsiy xususiyatlari bilan yangi xonadonda bir qancha o'zgartirishlar kiritadi, gohida islohatchi rolini bajarishga ham moyildir.

NATIJALAR (PEZYLTATY/RESULTS). **Ayolning** oilada muloqot va muomala o'rnatish funksiyasini – to'laqonli bajarilishi oilaviy hayot masalalarining ijobiy va samarali amalga oshirishiga zamin yaratadi. Oila a'zolarining o'zaro muloqot o'rnatishi va muomalaga kirishishga bo'lgan eng asosiy ehtiyojni qondirishga qaratilgan barcha psixologik jarayonlar oilada ayolning ishtirokida amalga oshadi.

Ayol tomonidan muloqot turlari, uning vazifalarini o'z farzandlariga o'z vaqtida yetkazib borilsa, nutqiy faoliyatning barcha konstruktiv jihatlariga e'tibor qaratilsa, oila a'zolari tomonidan iliq, samimiy va ijobiy psixologik muhitni yuzaga keltiruvchi muvaffaqiyatli yoki namunali oila mavqega erishish ehtimoli yuqori bo'ladi. Ayolning turli ijtimoiy oriyentatsiyalari, ustanovkalari, madaniyati, uning axloqiy- ma'naviy qarashlari hamda muloqotchanligi – oiladagi o'zaro ichki muloqot xarakterini yuzaga keltiradi.

Ayolning reproduktiv vazifasi eng muhim va dolzarbligi bilan ajralib turadi. Oilaning bardavomiyligini ta'minlashga asosiy zamin yaratadigan ushbu vazifa ayol tomonidan to'g'ri, aniq, sifatli, ijobiy bajarilishi sog'lom avlodni dunyoga keltirishni rejalashtirish va amalga oshirishdagi o'ziga xos bo'lgan psixologik mexanizmlardan iboratdir. Ushbu vazifaning samarali amalga oshirilishida ayolning psixologik va fiziologik sog'ligi, jismoniy barkamolligi va yetukligi katta ahamiyat kasb etadi. Chunki sog'lom onadan -sog'lom farzand dunyoga keladi.

Oilaviy munosabatlarning bardavomiyligini ta'minlashga qaratilgan ayolning ijtimoiylashuvi vazifasi zahirida oila a'zolarining o'zlari yashayotgan jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida kamol topishi, jamiyat tomonidan qabul qilingan barcha me'yorlar va qonuniyatlarga bo'ysunish va amalga oshirish kabi xususiyatlarni o'zida ifoda etish kabi xislat va xususiyatlarni shakllantiradi. Oila a'zolarining jamiyatning faol a'zosi, fuqorasi, shaxs va jamiyat uyg'unligini amalga

oshirishga xizmat qiluvchi tushunchalar, qarashlar, g'oyalarni o'zida ifoda etish shaxsning ijtimoiy tajribasi va ijtimoiy faolligini ta'minlaydi. Shaxsning ijtimoiylashuvida jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlar, qonunlar, qoidalar, chegara, rag'batlantirish yoki jazolash kabi holatlar onaning o'z farzandiga yosh xususiyatlari hamda individual xususiyatlari inobatga olgan holda tizimli tushunchalar hosil qilish uchun sharoit yaratiladi. Bu esa, shaxsning ijtimoiylashuv qonuniyatlariga bo'y sunushi va amal qilishiga zamin yaratadi.

Ayolning o'z farzandlarida va boshqa oila a'zolarida emotsional qoniqish funksiyasini shakllantirishi o'ta muhim vazifalardan biridir. Ayol tomonidan turmush o'rtog'i, farzandlari va oiladagi boshqa a'zolarga psixologik ko'mak, madad, yordam berish orqali u emotsional vazifasini to'laqonliga amalga oshiradi. Mehr, muhabbat, quvonch, xursandchilik, kayfiyat, zavqlanish, ilhomlanish ulashish hamda har bir shaxsda inson uchun zarur bo'lgan, uni oilasiga yetaklovchi ijobiy his-tuyg'ularni yuzaga keltirish albatta ayol kishining zimmasidadir. Farzandlarning emotsiya va his-tuyg'ularini erkin, ijobiy va samarali ifodalay olish qobiliyatlarining shakllanishiga oilada asos solinadi.

Oilaning maqom funksiyasi – odatda ayol kishi farzandlarga u kimning farzandi ekanligi, shu nomga sazovor bo'lishdek ma'suliyatni hamda his-tuyg'ularni shakllantiruvchi shaxsdir. Oilaning obro'si, mahallada tutgan o'rnini, mavqe, muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz, namunali yoki noqobil deb e'tirof etilishi ayol kishining zimmasidagi vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki oiladagi psixologik muhit, oiladagi qadriyatlarga amal qilish, urf-odatlarini farzandlarga singdirilishi ham ko'proq ayolning zimmasidagi vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifani to'g'ri, tizimli va oilaning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlariga bog'liq ravishda o'z vaqtida amalga oshirib borishi lozim.

Har bir oila iqtisodiy masalalarni amalga oshirishda individual tarzda yondashadi. Chunki har bir oilaning pulga, uni sarflashga, tejashga, xarajatlar ro'yxatini shakllantirish hamda oila a'zolarining talablari va ehtiyojlariga mos ravishda, o'ziga xos tarzda amalga oshiradi. Agarda oilada ayol tomonidan yuqorida e'tirof qilingan masallar yuzasidan ijobiy va samarali uslublar qo'llanilsa, bu oilaning

bardavomiyligini, iqtisodiy to'kisligini, hamjixatligini ta'minlashga oqilona yondashuvini ko'rsatib beradi.

Oiladagi feletsitologik funksiya – bu aynan oila a'zolarining barchasini baxtli qilishga harakat qilish va uning uddasidan chiqish vazifasi hisoblanadi. Biz bilamiz, baxt tushunchasini har bir ayol o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Ammo oila a'zolarining baxtli bo'lishi uchun javobgar shaxs ko'prok ayol hisoblanadi. O'z farzandlarining sevib-sevilib yashashlari uchun imkon qadar harakatlarni amalga oshirish va ularda baxtli bo'lishdek oliy his-tuyg'ularni shakllanishga o'zining ijobiy xarakter xususiyatlari bilan zamin yaratadi.

Oilada relaksatsiya funksiyasini amalga oshirilishini ta'minlashga ko'proq ayol kishi mas'uldir. Chunki oila a'zolarining birgalikda dam olishlarini, sayohatga chiqish, bo'sh vaqtlarini samarali tashkil qilish va o'tkazishda vaqtni to'g'ri taqsimlashi masalasini ham oldindan rejalashtirish, o'ta mas'uliyatli jarayon bo'lganligi sababli ayol ushbu vaziyatlarda ham faol va uddaburon bo'lishi talab qilinadi. Buning zahirida esa, oila a'zolarining hamjihatligi, jipsligi, o'zaro hurmat va e'tiborni shakllantirishga zamin yaratadi.

Regulativ funksiya – oilada barcha munosabatlar boshqarilib boriladi, aynan shaxslararo munosabatlar, opaning – ukaga, singilning – akaga, kattalarning – kichiklarga, kichiklarning – kattalarga bo'lgan munosabatlarini boshqarib borish albatta oilaning ayoli zimmasiga yuklatilgan bo'ladi. Ayol tomonidan oiladagi vazifalar va ularni oila a'zolaridan kimlar tomonidan bajarilishi, oiladagi yumushlarning oila a'zolariga taqsimlanishi, onaning topshiriqlarini so'zsiz bajarish kabi jarayonlar ayolning o'z vazifalarini to'liq amalga oshirishi, ularni qabul qilish, ijro qilish, buysundirish, tan olish esa har bir ayolning o'ziga xos psixologik qiyofasini yaratadi. Oila a'zolarini boshqarish va munosabatlarni tizimli amalga oshirish esa, oilaning kelajagi va bardavomiyligini ta'minlaydi.

Oilada ayolning bajarishi muhim bo'lgan asosiy vazifalaridan biri bu- tarbiyaviy funksiyasidir. Oilada farzandlar tarbiyasini olib borishda o'zbek oilalarida qo'llaniladigan barcha tarbiya turlaridan samarali foydalanishi lozim. Ayollarning avloddan-avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan tarbiya uslublarini qo'llashning ham

o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu tarbiya uslublarining asosini bolani yoktirish yoki yoktirmaslik, bola bilan do'st bo'lish yoki uni o'zidan uzoqlashtirish, bola uchun sharoit yaratish yoki umuman unga bee'tibor bo'lish, ular bilan tenglik darajasida munosabatga kirishish, bolani o'zgacha bir dunyo deb hisoblash, kichkina-himoyasiz deb qarash, farzandlarga hukmronlik qilish kabi munosabatlar tizimi tashkil qiladi. Ba'zi oilalarda ayol o'zining tarbiya uslublarini namoyishkorona shu oilada unga bo'lgan salbiy munosabatlarga javob tariqasida ham qo'llashi mumkin. Bu esa, o'z vaqtida oila a'zolarining rolli kutishlariga putur etkazadi. Bu gohida ijobiy yoki salbiy holatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

XULOSA(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONSLUSION). Demak, ayolning oiladagi funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi har qanday oilaning kelajagini ta'minlovchi mezon hisoblanadi. Oilada ijobiy psixologik muhitni bir me'yorda saqlash, oila azolarining barchasiga taalluqli hodisadir. Oilaviy munosabatlar tizimida nizolarga konstruktiv yondashuvni shakillantirishda ayollarning ro'li va o'rni beqiyosdir. Oilalarda yuzaga keladigan muammoli holatlarning oldini olishda quyidagilar tavsiya qilinadi:

- Birinchidan, ayol oilaning barcha a'zolariga psixologik madad va yordam berishi, oila a'zolarining hissiyotlarini ijobiylashtirishga erishishi;
- Ikkinchidan, oila azolarining xulq-atvorlarini tartibga solib borishi;
- Uchinchidan, oila a'zolari o'rtasidagi muloqot, munosabat, ma'suliyat, majburiyat va vazifalarini o'z vaqtida og'ishmay amalga oshirilishini ta'minlashga erishishdan iboratdir. Ayolning baxtli va farovon turmush kechirishi uning oiladagi muammoli vaziyat va holatlarni bartaraf qilish yoki oldini olishi, voqelikni oldindan ko'ra bilishi, vaziyatlarga adolatli yondashishi, muammolarning yechimi ijobiy bo'lishini ta'minlashga zamin yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Shoumarov G`.B. Oila psixologiyasi. T.: 2004y.
2. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T.: 2006 y.
3. Shoumarov G`.B. va boshq. Psixologning 1001 savolga 1001 javobi. T., 2023y.



O'SMIRLARDA EHTIYOJLAR NAMOYON BO'ISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI RAT METODIKASI ORQALI O'RGANILISHI

Zamira Atamuratova

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail:zamira.atamuratova@gmail.com

Kalit so'zlar: o'smir, RAT, TAT, ota-ona, farzand, oilada farzandlarning tug'ilish taribi, agressiya, erishish, demonstratsiya, ijtimoiylik, zararni oldini olish.

Annotatsiya

Mazkur maqolada G.Myurrey tomonidan ishlab chiqilgan TAT (tematik appersepsiya testi) asosida yaratilgan RAT (rasmli appersepsiya testi) orqali o'smirlardagi 22 ta turli xildagi ehtiyojlar sohasini o'rganildi. Tadqiqotda 577 nafar kichik va katta o'smirlik yosh davridagi o'quvchilar tanlab olindi. Ularning ehtiyojlar sohasi oilada nechanchi farzand ekanligiga bog'liqlik xususiyatlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari bo'yicha o'smirlarda ehtiyojlar farzandlarning tartib soniga bog'liqligi izohlangan.

family is an essential socializing avenue for children. It is the first and most influential group to

which children are exposed and belong. The family provides the framework within which children

learn about themselves, develop their sense of personal and social identity, and learn society's basic

rules and expectations. The family also plays a critical role in developing aggressive behaviors among

children. Studies have shown that children who come from homes with many conflicts are more likely

to be aggressive [1].

A family is an essential socializing avenue for children. It is the first and most influential group to

which children are exposed and belong. The family provides the framework within which children

learn about themselves, develop their sense of personal and social identity, and learn society's basic

rules and expectations. The family also plays a critical role in developing aggressive behaviors among

children. Studies have shown that children who come from homes with many conflicts are more likely

to be aggressive [1].

A family is an essential socializing avenue for children. It is the first and most influential group to which children are exposed and belong. The family provides the

framework within which
children

learn about themselves,
develop their sense of
personal and social identity,
and learn society's basic
rules and expectations.

The family also plays a
critical role in developing
aggressive behaviors among

children. Studies have shown that children who come from homes with many conflicts are more likely to be aggressive [1].

Ilmiy manbalarda o'smirlik hissiyotlarning kuchayishi davri sifatida tavsiflanadi, bu o'zini yengil qo'zg'aluvchanlik, kayfiyatning o'zgarishi, tashvish, tajovuzkorlik va boshqa zo'ravonlik reaksiyalarida namoyon qiladi [4]. O'smirning kelajakdagi ijtimoiylashuv jarayonida ehtiyojlarning qondirilishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunda ularga oila muhiti, ota-onaning munosabati va individual faollik yaqindan yordam beradi.

Mehribon, qo'llab-quvvatlovchi oilalarning farzandlari maktabda va hayotda boshqalarga qaraganda yaxshiroq ishlaydi. Ular o'z-o'zini hurmat qilish, yaxshi ijtimoiy ko'nikmalar va martaba muvaffaqiyatga intiladilar. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, oilalarning bolalarga ta'siri muhim ahamiyatga ega. Zo'ravonlik, agressiya yoki e'tiborsizlik ostida ulg'aygan bolalar kattalarga qaraganda ko'proq agressiv bo'lishadi [1]. Shu bois biz o'smirlik davridagi bolalarning agressiv xulq

atvoriga sabab bo'ladigan nazariy qarashlar tahlilini o'rganib chiqdik. Bunda asosiy omillardan biri oilada farzandlarning tug'ilish taribi ularda turli ehtiyojlaning ortib ketishiga sabab bo'lishi mumkinligi o'rganildi. Xususan, Chelsi Grinvud o'z maqolasida to'ng'ich farzandlarning muvaffaqiyatga erishish imkoniyati yuqori bo'lishi, kenja farzandlarda esa hurmat va e'tibor uchun kurashishi, qoidalarni buzishi haqida qayd etib o'tgan [3] ligi ham tadqiqot ishimizning dolzarbligini ochib berishga xizmat qiladi.

Psixologik manbalarda keltirilishicha, agressiv xatti-harakatlar insonga, hayvonga yoki jismoniy mulkka zarar yetkazishga qaratilgan har qanday odat yoki xatti-harakatlardir [2]. Bolalarda namoyon bo'ladigan agressiv xatti-harakatlar deb ataladigan ba'zi odatlarga quyidagilar kiradi; qichqiriq, xaqorat qilish va jismoniy zo'ravonliklar kiradi. Boshqalar tomonidan, tajovuz insonga jismoniy yoki psixologik zarar yetkazishi mumkin bo'lgan bir qator xatti-harakatlarni anglatadi [5].

Mazkur omillarni tahlil qilishda biz G.Myurrey tomonidan ishlab chiqilgan TAT (tematik appersepsiya testi) asosida yaratilgan RAT (rasmli appersepsiya testi) dan foydalandik. RAT (rasmli appersepsiya testi) orqali biz o'smirlardagi 22 ta turli xildagi ehtiyojlar sohasini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Tadqiqotimizda 577 nafar kichik va katta o'smirlik yosh davridagi o'quvchilarning oilada nechanchi farzand ekanligiga qarab ehtiyojlar sohasida o'zgarishlar yuzaga kelishini tahlil qildik. Quyidagi jadvalda oilalardagi farzandlar tartibiga ko'ra ehtiyojlar o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar Krusskal Uollis H mezoni asosida yoritib o'tildi.

Shkalalar	Oilada nechanchi farzand	N (soni)	O'rt acha rang	H	P
O'z-o'zini kamsitish	1-farzand	213	292,9 0	4,187	,523
	2-farzand	211	280,2 7		

	3-farzand	102	279,6 2		
	4-farzand	38	319,0 8		
	5-farzand	8	359,4 4		
	6-farzand	5	341,3 0		
	Jami	577			
Erishish	1-farzand	213	303,8 2	13,11 3	,022*
	2-farzand	211	270,2 5		
	3-farzand	102	280,7 8		
	4-farzand	38	332,3 8		
	5-farzand	8	199,3 8		
	6-farzand	5	430,3 0		
	Jami	577			
Muloqot	1-farzand	213	282,8 0	9,045	,107
	2-farzand	211	280,8 0		
	3-farzand	102	295,4 9		

	4-farzand	38	311,45		
	5-farzand	8	373,38		
	6-farzand	5	461,10		
	Jami	577			
Agressiya	1-farzand	213	300,11	14,502	,013*
	2-farzand	211	271,90		
	3-farzand	102	267,29		
	4-farzand	38	350,62		
	5-farzand	8	339,13		
	6-farzand	5	431,50		
	Jami	577			
Avtonomiya	1-farzand	213	305,33	6,662	,247
	2-farzand	211	285,56		
	3-farzand	102	261,70		
	4-farzand	38	289,92		

	5-farzand	8	240,06		
	6-farzand	5	366,70		
	Jami	577			
Muxolifat	1-farzand	212	307,01	7,765	,170
	2-farzand	211	266,41		
	3-farzand	102	301,83		
	4-farzand	38	273,17		
	5-farzand	8	261,69		
	6-farzand	5	323,40		
	Jami	576			
Himoya	1-farzand	213	289,11	7,537	,184
	2-farzand	211	291,72		
	3-farzand	102	275,87		
	4-farzand	38	302,00		
	5-farzand	8	215,25		

	6-farzand	5	456,30		
	Jami	577			
Hurmat	1-farzand	213	293,00	5,577	,350
	2-farzand	211	290,54		
	3-farzand	102	275,35		
	4-farzand	38	288,50		
	5-farzand	8	228,63		
	6-farzand	5	432,20		
	Jami	577			
Hukmronlik	1-farzand	213	288,99	8,608	,126
	2-farzand	211	274,83		
	3-farzand	102	322,60		
	4-farzand	38	262,97		
	5-farzand	8	292,75		
	6-farzand	5	394,00		
	Jami	577			

Demonstratsiy	1-farzand	213	308,54	11,913	,036*
	2-farzand	211	268,56		
	3-farzand	102	285,34		
	4-farzand	38	268,34		
	5-farzand	8	366,19		
	6-farzand	5	427,20		
	Jami	577			
Zararni oldini	1-farzand	213	310,39	14,311	,014*
	2-farzand	211	268,00		
	3-farzand	102	278,74		
	4-farzand	38	293,51		
	5-farzand	8	261,25		
	6-farzand	5	483,30		
	Jami	577			
Uyatdan					
qochish	1-farzand	213	297,15	6,975	,223

	2-farzand	211	273,41		
	3-farzand	102	300,45		
	4-farzand	38	320,66		
	5-farzand	8	191,38		
	6-farzand	5	281,90		
	Jami	577			
G'amxo'rlik	1-farzand	213	294,75	1,179	,947
	2-farzand	211	283,82		
	3-farzand	102	284,91		
	4-farzand	38	300,88		
	5-farzand	8	253,38		
	6-farzand	5	312,60		
	Jami	577			
Tartibda	1-farzand	213	297,16	5,897	,316
	2-farzand	211	279,83		

	3-farzand	102	273,60		
	4-farzand	38	320,93		
	5-farzand	8	284,88		
	6-farzand	5	406,10		
	Jami	577			
O'yinda	1-farzand	212	293,57	1,1711	,887
	2-farzand	211	291,45		
	3-farzand	102	283,50		
	4-farzand	38	262,38		
	5-farzand	8	253,06		
	6-farzand	5	305,80		
	Jami	576			
Rad etishda	1-farzand	213	291,87	3,490	,625
	2-farzand	211	284,31		
	3-farzand	102	286,49		

	4-farzand	38	315,47		
	5-farzand	8	210,25		
	6-farzand	5	341,00		
	Jami	577			
Sensor tassurotlarda	1-farzand	213	294,72	10,095	,073
	2-farzand	211	271,41		
	3-farzand	102	288,63		
	4-farzand	38	323,04		
	5-farzand	8	337,00		
	6-farzand	5	459,40		
	Jami	577			
Intim munosabatda	1-farzand	213	297,85	5,573	,350
	2-farzand	211	287,79		
	3-farzand	102	262,90		
	4-farzand	38	324,36		

	5-farzand	8	239,94		
	6-farzand	5	305,50		
	Jami	577			
Qo'llab-quvvatlashda	1-farzand	213	297,36	3,540	,617
	2-farzand	211	282,63		
	3-farzand	102	276,82		
	4-farzand	38	322,22		
	5-farzand	8	245,19		
	6-farzand	5	267,70		
	Jami	577			
Tushunishda	1-farzand	213	289,40	4,318	,505
	2-farzand	211	276,14		
	3-farzand	102	310,64		
	4-farzand	38	289,76		
	5-farzand	8	353,75		

	6-farzand	5	263,60		
	Jami	577			
Narsissizm	1-farzand	213	284,79	4,887	,430
	2-farzand	211	281,33		
	3-farzand	102	301,17		
	4-farzand	38	317,13		
	5-farzand	8	246,31		
	6-farzand	5	398,00		
	Jami	577			
Ijtimoiylik	1-farzand	213	266,36	16,124	,006*
	2-farzand	211	298,51		
	3-farzand	102	333,12		
	4-farzand	38	235,18		
	5-farzand	8	315,94		
	6-farzand	5	318,00		
	Jami	577			

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01

Tadqiqot natijalar tahliliga ko'ra, **o'z-o'zini kamsitish** shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p>0,05$; $h=4,187$).

Erishish shkalasi bo'yicha aksincha, farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar aniqlandi ($p<0,05$; $h=13,113$). Unga ko'ra muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji 6-farzandlarda juda yuqori darajada bo'lishi kuzatildi. Mazkur fikr tahlili yuqorida nazariy ma'lumotlarda ham keltirib o'tilgan. Ya'ni kenja farzandlarda erishish ehtiyoji va imkoniyati boshqa farzandlardan ko'ra yuqori bo'lishi tarbiya uslubi va oila a'zolari munosabati bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin ekan.

Muloqot shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p>0,05$; $h=9,045$). Muloqot ehtiyoji D.B.Elkonin yetakchi faoliyat nazariyasiga ko'ra, o'smirlik yosh davriga xos asosiy ehtiyoj hisoblanadi. Shu bois ham ushbu ko'rsatkich bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida tafovutlar kuzatilmagan bo'lishi mumkin.

Shuningdek, **agressiya** shkalasi bo'yicha ham farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi ($p<0,05$; $h=14,502$). Ushbu tahlilda biz agressiya ko'rsatkichi 6-farzandlarda va 4-farzandlarda yuqori bo'lishini aniqladik. Bu holat yuqoridagi erishish ehtiyoji qondirilishi bilan ham bevosita bog'liq bo'lishi mumkin.

Avtonomiya shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatilmadi ($p<0,05$; $h=6,662$). Avtonomiya odatda bir farzandli oilalarda kuzatiladigan xulq-atvor shakli hisoblanadi. Balki, shu bois ham bizning tadqiqotimizda ushbu ko'rsatkichda ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmagan bo'lishi mumkin.

Muxolifat shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p<0,05$; $h=7,765$). Farzandlar tarbiyasida ota-onaning munosabatidan kelib chiqqan holda turlicha xulq-atvor shakli rivojlanishi mumkin. Bunda o'smirlik yosh davida bolalik adaptatsiyalari saqlanib qolishi hisobiga ham muxolifat ehtiyoji saqlanib qolishini kuzatishimiz mumkin.

Himoya shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatilmadi ($p < 0,05$; $h = 7,537$). Himoyaga bo'lgan ehtiyoj har bir shaxs uchun muhim omil hisoblanadi. Chunki uning hayot tarzi, shaxsiy manfaatlari, xavfsizligi aynan himoya ehtiyoji bilan bog'langan. Biz shu sababdan ham to'ng'ich farzan yoki kenja farzandlar himoya ehtiyoji yuqori bo'ladi deb ayta olmaymiz.

Hurmat shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p < 0,05$; $h = 5,577$). Hurmat ehtiyoji shaxsning o'ziga bo'lgan bahosi bilan bevosita bog'liq bo'lib, baholashning ortib ketishi hurmat ehtiyojining yuqori darajada bo'lishiga, aksincha pasayishi uning kamayishiga olib keladi. Shuningdek **hukronlik** ehtiyojida ham farzandlar tug'ilish tartibi orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatilmaganligini keltirib o'tishimiz mumkin ($p < 0,05$; $h = 8,608$). Mazkur holat hurmat ehtiyoji va hukronlikning individual omillar bilan bog'liq jihat ekanligini izohlab beradi.

Demonstratsiya shkalasi bo'yicha ham farzandlar tug'ilish tartibi orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatildi ($p < 0,05$; $h = 11,913$). Mazkur tahlilda demonstratsiya ko'rsatkichining 6-farzandlarda va 5-farzandlarda yuqori bo'lishini aniqladik. Kenja farzandlarning butun oila a'zolari e'tiborida bo'lishi ularda demonstratsiya ehtiyoji ortib ketishiga olib kelishi mumkin.

Zararni oldini olish shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ahamiyatli tafovutlar aniqlandi ($p < 0,05$; $h = 14,311$). Zararni oldini olishga intilish 6-va 1-farzandlarda yuqori darajada bo'lar ekan. Bu yuqorida keltirilgan himoya ehtiyoji bilan ham bog'liq.

Uyatdan qochish shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p > 0,05$; $h = 6,975$). Farzandlar tarbiyasida ota-onaning munosabatidan va vaziyat taqozosidan kelib chiqadigan hissiy holat hisoblanadi.

G'amxo'rlik shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p > 0,05$; $h = 1,179$). Ota-onaning munosabatidan kelib chiqqan holda bola shaxsida tarbiyalanib boradi. G'amxo'rlik ijtimoiy parameter bo'lib, kishi ulg'aygan sari o'zgarib boradi.

Tartib shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p>0,05$; $h=5,897$). Tarbiya jarayonida ota-onaning bolaga munosabatida tutgan uslubidan kelib chiqadi. Shuningdek tartib ehtiyoji shaxs asab tizimi qo'zg'aluvchanligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

O'yin shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p>0,05$; $h=1,1711$). O'smirlik yosh davrida referent guruh ta'siriga tushish holati ko'p uchraydi. Bunda referent guruh uchun o'yin jamoaviy faoliyat vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham o'yin o'smirlik yosh davridagi oiladagi katta va kichik farzandlarda ham bir xilda qabul qilinarkan.

Rad etish shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p>0,05$; $h=3,490$). Himoya ehtiyoji bilan bog'liq holda ishlaydigan proyeksiya hisoblanadi.

Sensor taassurotlar shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p>0,05$; $h=10,095$). Asosan individual tipologik xususiyatlar hamda shaxsning sezgi, idrok xususiyatlari bilan bog'liq.

Intim munosabat shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p>0,05$; $h=5,573$). O'smirlik davridagi bolalarda intim munosabat ehtiyoji rivojlanishning latent bosqichida bo'lgani bois bu ehtiyoj bo'yicha ham ahamiyatli tafovutlar aniqlanmadi.


Qo'llab-quvvatlash shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p>0,05$; $h=3,540$). Farzandlar orasidagi turli vaziyatli munosabatlar asosida rivojlanadi.

Tushunish shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p>0,05$; $h=4,318$). Tushunish ehtiyoji bolaning kognitiv sohasi rivojlanganlik darajasi, xususan tanqidiy tafakkur, mantiqiy fiklash shakllanishi bilan o'zgarib boradi.

Narsissizm shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($p>0,05$; $h=4,887$). Ota-onaning farzandlar tarbiyasida haddan tashqari g'amxo'rlik qilishi oqibatida kelib chiqishi mumkin.

Ijtimoiylik shkalasi bo'yicha farzandlar tug'ilish tartibi orasida ahamiyatli tafovutlar aniqlandi ($p < 0,01$; $h = 16,124$). Ijtimoiylashuv ehtiyoji 3-farzandlarda yuqori darajada bo'lar ekan. Bu oila muhitida ota-onalarning katta va kichik farzandlarga ko'proq e'tiborli munosabatda bo'lishi, o'rtancha farzandlarda ijtimoiy muhitda faol munosabat orqali o'zlarini ko'rsatishga ehtiyojning ortishi bilan izohlanadi.

Quyida diagrammada ishonch darajasidagi tafovutlar keltirib o'tildi



Xulosa sifatida keltirib o'tishimiz lozim bo'lgan alohida jihatlardan biri, bu o'smirlik yosh davridagi ehtiyojlarning o'zgarish tartibi ularning oilada tug'ilish taribi bilan ham bevosita bog'liq ekanligi, shuningdek ota-ona va farzand munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, ayniqsa ko'p bolali oilalarda farzandlarga bir xilda ijobiy munosabatda bo'lish ularning kelajakda jamiyat hayotida faol munosabatlarga kirishuvchi, mustaqil fikrga ega, raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Bornstein L, Bornstein MH. Parenting styles and child social development. Encyclopedia on early childhood development. Montreal: Centre of Excellence for Early Childhood Development and Strategic Knowledge Cluster on Early Child Development. 2007.
2. Caruso, R., Antenora, F., Riba, M., Belvederi Murri, M., Biancosino, B., Zerbinati, L., and Grassi, L. Aggressive Behavior and Psychiatric Inpatients: A

Narrative Review of the Literature Focused on the European Experience. Current Psychiatry Reports, vol. 23, no. 5, 2021, pp. 1-12. Springer

3. Firstborn children are more likely to be CEOs, and other things your birth order can predict about your future, Business Insider - Apr 8, 2019 <https://www.businessinsider.com/siblings-birth-order-2018-4>

4. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn]: darslik / Z.T. Nishanova va boshq. - T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.

5. The Influence of Family on Young Children's Aggressive Behaviors, Journal of Education Humanities and Social Sciences 8:1842-1847; 8:1842-1847, February 2023 DOI: [10.54097/ehss.v8i.4594](https://doi.org/10.54097/ehss.v8i.4594)



SUD FAOLIYATIDA PSIXOLOGNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Olimov Laziz Yarashovich

Buxoro davlat universiteti, Psixologiya kafedrası professori, Psixologiya fanları bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПСИХОЛОГА В СУДЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Олимов Лазиз Ярашович

Бухарский государственный университет, профессор кафедры психологии, PhD

Аннотация: В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствование ее конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компоненты судебного психолога; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

MECHANISMS FOR IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF A PSYCHOLOGIST IN COURT ACTIVITY

Olimov Laziz Yarashovich

Bukhara state university, professor department of psychology, PhD

Abstract: This article discusses the study of the manifestation and development of factors of competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.

Key words: forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.

Kirish

O'zbekiston hukumati tomonidan so'nggi paytlarda sud ekspertizasi xodimlarining kasbiy kompetentligi, ularning samarali faoliyat yuritishlari hamda sud-huquq tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan, sud ekspertlarining dunyoqarashi va tafakkuridagi o'zgarishlarga, ya'ni ularning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liqligidan kelib chiqib, qator qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinmoqda.

Kompetensiya – uning nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakasi, dunyoqarashi, e'tiqodi va barcha shaxsiy individual ijtimoiy-psixologik sifatlarining namoyon bo'lishidir. Faoliyat sifat va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri, bu – uning o'z sohasi bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. U faoliyat moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi. Bular:

- ilmiy bilish;
- gnoseologik bilish;
- kasbiy faoliyatni epchillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish;
- har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy kreativ yondashish;
- faoliyat jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish;
- o'zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini o'rganish va ichki psixologik zahirasidan samarali foydalanish orqali o'zini muttasil rivojlantirish.
- jamiyat va insonlarga, tabiatga, borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo'lish ijobiy pozitiv fikrlashga o'tish tajribasidan iborat.

Sud psixolog ekspertlarini quyidagi kompetensiyalarni faoliyat jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan asosiy tayanch kompetensiyalar sifatida baholashimiz mumkin:

- Kommunikativ;
- Shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish;
- Ijtimoiy faol fuqarolik;
- Umummadaniy;
- O'z sohasi yangiliklaridan xabardor bo'lish;
- Psixodignostikani amaliyotda qo'llay olish;
- Huquqiy va psixologik bilimdonlikka ega bo'lish.

Sud psixolog ekspertlarida quyidagi tayanch kompetensiyalar takomillashtirilishi lozim:

1. Kommunikativ kompetensiya:

– sud psixologik ekspertizasi jarayonida ekspert o'z munosabatini vakolati doirasida huquqiy asoslardan kelib chiqib, og'zaki va yozma tarzda qisqa, lo'nda, tushunarli hamda ta'sirchan vositalarardan unumli foydalangan holda bayon qilish, so'zlarni talaffuz qilishda urg'uni to'g'ri qo'yish, adabiy til me'yorlariga amal qilish, o'z fikrini imlo va husnixat qoidalaridan kelib chiqib xatolarsiz bayon qilish;

– vaziyat taqozosiga ko'ra hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a'zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, e'tirozli fikrlarga to'g'ri munosabat bildirish, ular fikrini shakllantirishda o'z ulushini qo'shish.

2. Shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

– shaxs sifatida doimiy ravishda o'zini-o'zi rivojlantirish, ma'naviy, psixologik va intellektual kamolotga intilishni doimiy hayotiy-ma'naviy ehtiyojiga aylantirish;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash va ularga amal qilish;

– hayoti davomida turli yo'nalishdagi (badiiy, publisistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, fan va texnika, san'at va boshqalarga doir) kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish, tegishli holatlarda ulardan o'z fikrining isboti va dalili sifatida amaliyotda foydalana olish;

– o'z hatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o'zini nazorat qila bilish, og'zaki va yozma matnlar mazmuniga to'g'ri baho bera bilish.

Kompetensiya bilim, ko'nikma, malaka va hayotiy tajribalarning amaliyotdagi tadbiqi sifatida sud psixolog eksperti hayotida, uning ekspert sifatidagi kamolotida katta rol o'ynaydi, shu nuqtai nazardan avvalo sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish va rivojlantirish barobarida ularda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga erishish maqsadga muvofiq.

Biz ijtimoiy-psixologik kompetentlikka doir izlanishlarga tayanib sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini belgilovchi mezonlar majmuasini quyidagilarga ajratdik.

1. Kognitiv;

1.1. Sud psixologik ekspertizasi jarayonida ekspertiza qilinayotganlarni tushunishning maxsus qoidalarini bilish;

1.2. Ijtimoiy xotira – insonlarning qiyofasi, ismini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan xotira;

1.3. Ijtimoiy intuisiya – ekspertiza qilinayotganlarning kayfiyatini, tuyg‘ularini, hatti-harakatlarini tushunish motivi, ijtimoiy mazmundagi xulq-atvorni mos tarzda kuzatuvchanlik qobiliyati;

1.4. Ijtimoiy voqelikni prognostik baholay olish – shaxsiy hatti-harakatlari rejasini shakllantirish, o‘zining faoliyatini jipslashtirishi, shaxsiy faoliyatini boshqalar ko‘zi bilan ko‘ra olishi va foydalanilmagan muqobil imkoniyatlar orqali baholash.

2. Emotsional;

2.1. Ijtimoiy ifodalilik – ijtimoiy ifodalilik, ijtimoiy sezgirlik, ijtimoiy nazorat;

2.2. Birgalikda qayg‘urish – ekspertiza qilinayotgan insonlarning holatiga kira olish, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘ya olishi qobiliyati.

2.3. O‘z-o‘zini tartibga solish qobiliyati – o‘zining emotsiyasi va kayfiyatlarini tartibga solish uquvi.

3. Xulqiy;

3.1. Ijtimoiy idrok qilish – ekspertiza qilinayotgan insonlarni tinglash malakasi;

3.2. Ijtimoiy o‘zaro ta’sirlashuv – hamkorlikda ishlashga shaylik va qobiliyatlilik, o‘zaro jamoaviy ta’sirlashuvga qobiliyatlilik;

3.3. Ijtimoiy moslashuvchanlik – tushuntira olish va boshqalarni ishontira olish uquvi, o‘zga kishilar bilan chiqishib ketish qobiliyati, atrofdagilar bilan munosabatlarda samimiylikning namoyon etilishi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, chet el va mahalliy pedagogik-psixologik adabiyotlarda «Kompetentlik» tushunchasini ta’riflashda yagona yondashuv mavjud emas. Kompetentlik so‘zining lug‘aviy ma’nosi lotinchadan olingan bo‘lib, «competo» «erishayapman, munosibman» degan ma’nolarni anglatadi, hamda ma’lum faoliyat turidan xabardorligini bilishini bildiradi. «Kompetensiya» bu – inson faoliyatiga namoyon bo‘ladigan, yetarli darajada boxabar faoliyat yoki sohada insonning amaliy jihatdan qodirligi, shuningdek, kasbiy faoliyatning ma’lum bir tizim bo‘yicha shakllanganligini belgilovchi xususiyat hisoblanadi. Shunga qaramay, aksariyat mualliflar tomonidan kompetentlik faoliyat yoki harakatning samarali ishlashi bilan bog‘lanadi.

Jumladan, Yevropa va amerikalik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikning amaliy jihatlarini, ya’ni muhitga ta’sir etuvchi (I.Borg, M.Muller, V.I.Lupandin), vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi (O.O.Gonina, M.Kaplan, L.Nuguist);

faoliyat tuzilmasidagi alohida hatti-harakatlarni amalga oshirishni ta'minotchisi (A.A.Bluginin, G.Birkgoff), amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qo'llovchi (S.P.Destra, S.Dollinger) sifatida o'rganishgan[6].

Hozirgi kunda kompetentlik asosan, inson qobiliyati sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste'dodi haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bunda "qobiliyat" tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz.

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo'naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko'nikma), kognitiv va operatsional.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bu holatda shaxs tuzilmasidagi motivatsion, xulq-atvor va kognitiv komponentlarning birlashuvini aks ettiruvchi "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

A.I.Subetto kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining sifat, xususiyat, mahorat toifalari doirasida o'rganadi. Uning ta'kidlashicha, kompetentlik va kompetensiya tushunchalari murakkab strukturali va dinamik ta'lim jarayonidir, ammo sifat va xususiyat toifalariga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida quyidagi umumiy tamoyillarga bo'ysunadi:

- yaxlitlik va tizimlilik tamoyili, bunda sifatning ichki tuzilmasi asos qilinadi;
- ob'ektning sifatini yuqori sifat darajasida, sifatning tashqi tuzilmasi esa, ob'ekt yoki jarayonning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri sifatini real sifat darajasida aniqlaydi;
- sifatning vujudga kelishi va rivojlanishida potensial va dolzarb tashqi va ichki ziddiyatlar tizimining mavjudlik tamoyili;
- turli jarayonlar sifatini natijalarda aks ettirish tamoyili.

Kompetentlik muammosining umumiy jihatlarini G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, N.S.Aulova, V.P.Bederxanova, O.A.Bulavenko, A.A.Dunyushin, O.A.Konopkin, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, M.D.Lapteva, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, Dj.Raven, A.V.Raysev, G.M.Romansev, S.L.Rubinshteyn, L.G.Semushina, A.V.Xutorskiy, E.F.Zeer, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan[4,6,8].

O.A.Bulavenkoning ta'kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o'ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg'un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo'luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi[7].

Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi, faoliyatda qanaqadir stabillik bo'lishi uning muvaffaqiyatga erishishida to'siq bo'lishi mumkin.

Pedagog A.A.Dunyushin shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish qobiliyati ekanligini ta'kidlaydi.

Ko'rinib turibdiki, fikr muallifi quyidagi bir necha mulohazalar orqali aniqlashtirilgan:

- a) kompetentlik aniq bir faoliyat sub'ekti tavsifi sifatida baholanishi mumkin;
- b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyat maqsadi, tuzilishi va maxsus talablariga bog'liq;
- c) kompetentlik hissiy-irodaviy sifatlar, shaxsning muloqotmandligi, intellektual salohiyati, shaxsning yo'naltirilganligi kompetentlikka asos bo'lib xizmat qiladi[9].

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, sud va tergov jarayonida sud psixolog eksperti va psixolog-mutaxassislarining kasbiy kompetentligiga aloqador bo'lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi ular kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida baholash lozimligini ko'rishmiz mumkin.

Ma'lumki, har qanday jinoiy ishlari bo'yicha, xususan psixologiyaga oid maxsus bilim va tajribalarni (kompetensiyalarni) talab qiluvchi ekspertizani tayinlash uchun huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi (JPK)ning 172-moddasida keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 173-moddasining (Ekspertiza tayinlash va o'tkazishning shartligi) 5-bandida belgilanganidek, ekspertizani «jabrlanuvchining, guvohning ruhiy va jismoniy holatini hamda ular ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qilish, esda saqlash va so'roq qilganda ifodalab berish layoqatiga ega ekanliklarini, shuningdek javbrlanuvchining jinoyat protsessi chog'ida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini» aniqlash zarur bo'lganda tayinlash va o'tkazish shart. Tabiiyki, psixologiyaning tadqiqot predmeti bo'lgan psixik hodisalarni baholash zaruratini belgilab beradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud jarayonlarida sud-psixologik ekspertizalar o'tkazish uchun huquqiy asos fuqarolik ishlari bo'yicha sudi sudyasi tomonidan chiqarilgan ajrim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi FPKning 84-moddasida belgilanganidek, ekspertiza maxsus, xususan psixologiya bo'yicha bilimlardan foydalangan holda, aniq tadqiqotni o'tkazish zarurati tug'ilganda tayinlanadi. Bu ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunining "Asosiy tushunchalar"deb nomlangan 3-moddasi ko'ra, sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berish nazarda tutilgan.

Jinoyat ishlari doir jarayonlarda SPE tayinlash uchun belgilangan me'yorlarga asosan, og'ir jinoyat sodir etgan sub'ektning individual-psixologik o'ziga xos xususiyatlarini, uning turg'un

motivasion-ma'noviy sabablarini o'rganishda, shuningdek shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat sabablarini baholashda qiyinchiliklar yoki murakkabliklar paydo bo'lganda, sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik uchun tegishli tartibda qonuniy chorasini aniqlash imkoni yo'qligi sababli amalga oshiriladi.

SPEning ahamiyati fuqarolik-huquqiy nizolarni hal qilish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. Bu holatda ekspertizani tayinlash uchun u yoki bu tomonlardan birining psixologik jihatlariga tegishli bo'lgan har qanday aniq ma'lumotlar, masalan, bitim tuzilayotgan vaqtda adashish, aldash yoki zo'ravonlik, ruhiy tazyiq ta'sirida bo'lgan sub'ektning intellektual, bilish qobiliyatining pastligi to'g'risidagi ma'lumotlar sabab bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, ham jinoiy, ham fuqarolik ishlari jarayonlarida SPEni tayinlash uchun sud kompetensiyasiga kiradigan munozarali masalalarning u yoki bu yechimiga tegishli psixologik tushunchalarni, jinoiy ishlar bo'yicha o'tuvchi yoki fuqarolik sud jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar psixikasining turli namoyon bo'lish mexanizmlarini psixologik tomondan baholash zarur deb topilgan har qanday aniq ma'lumotlar sabab bo'lishi mumkinligini qayd etish lozim.

Huquqshunoslik amaliyotida "inson omili" tushunchasi yetakchi o'rinni egallar ekan, sohaga tegishli psixologik nazariya va amaliyot (tajriba)lardan foydalanish odilona qaror qabul qilish va hukm yoki ajrim chiqarish bugungi kunning o'ta muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Afsuski, bugungi kunda sud-psixologik ekspertizalarni tashkil qilish va uni o'tkazish bo'yicha maxsus muassasa yoki markaz tashkil qilinmaganligi boisdan bu ish bilan hududlardagi oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar amalga oshirmoqda. Qolaversa, sud-psixologik ekspertlarning malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yilmaganligi turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotganligini qayd qilish mumkin[10].

"Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risida Namunaviy Nizom"ning 29-bandiga ko'ra, «Ekspert xulosasi uch qismdan: kirish, tekshirish va xulosalardan (yakunlovchi) iborat bo'ladi» .

Sud-psixologik ekspertizasi komissiyasi xulosasi rasmiy yozma hujjat bo'lib, unda, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual va Fuqarolik protsessual kodekslariga muvofiq, sud-psixologik ekspertizasini o'tkazishning qonuniy asoslari va shartlari, ekspert yoki ekspertlar oldida qo'yiladigan masalalar, ular o'tkazgan ekspertlar, shuningdek ekspertiza komissiyasi xulosalari aks ettiriladi. Sud-psixologik ekspertizasining xulosasi jinoyat yoki fuqarolik ishi bo'yicha tegishli tartibda isbot (dalil) hisoblanadi.

Sud-psixologik ekspertizasi komissiyasining xulosasi ekspertizani o'tkazgan barcha ekspertlar tomonidan imzolagan bosma ko'rinishda tuziladi va u mazkur sud-psixologik ekspertizasi o'tkazilgan muassasaning muhri bilan muhrlanadi. Xulosani tuzishning umumiy muddati – ekspert tekshirish yakunlangan va ekspert xulosalar chiqarilgandan (shu jumladan ekspertlar o'rtasidagi

kelishmovchilik tufayli ular tomonidan bittadan ko‘p xulosa tuzilgan hollarda ham), ta’riflangandan so‘ng 15 kundan kechiktirilmaslgi lozim. Ekspertiza komissiya tomonidan amalga oshirilganda ekspertiza xulosasi loyihasini tayyorlash, uning matni bo‘yicha ekspert komissiyasining boshqa a‘zolari bilan kelishish, shuningdek xulosani tuzish majburiyati ekspert komissiyasi a‘zolarining biri (kotiblik qilgan) tomonidan tayyorlanadi.

Sud-psixologik ekspertizasi xulosasi quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:

1. Umumiy qism

1.1. Xulosaning kirish qismi.

1.2. Xulosaning kirish qismi quyidagilarni aks ettiradi:

- sud-psixologik ekspertizani o‘tkazish sanasi va joyi;
- sud-psixologik ekspertizani o‘tkazishning huquqiy asosi;
- sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to‘g‘risida ma’lumotlar;
- sud-psixologik ekspertizasi komissiyasi (famiyasi, ismi, sharifi, ma’lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, egallagan lavozimi) va tashkilot to‘g‘risida tegishli bo‘lgan ma’lumotlar;

• O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238, 240-moddalarida ko‘rsatilganidek, sud eksperti yolg‘on guvohlik berish, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma’lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ruxsatisiz oshkor qilish, shuningdek ekspertning xulosa berishni rad etishi yoki bu ishdan bo‘yin tovlashi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantirish;

• ekspert yoki ekspert komissiyasi aniqlashi lozim bo‘lgan savollar. Ular aniq, sud ajrimida yoki tergov organlarining ekspertiza tayinlash haqidagi qarorida qanday bo‘lsa shunday ifodalangan bo‘lishi kerak.

Agar savollar noto‘g‘ri (aniq, qabul qilingan atamalarga muvofiq bo‘magan holda va h.k.) ifodalangan bo‘lsa, lekin ularning ma’nosi ekspertga tushunarli bo‘lsa, ekspert savollarni o‘zining maxsus bilimlariga tegishli holda ifodalashi mumkin. Bir necha savol qo‘yilgan holda, ekspert ularni qayta turkumlashi, tekshirish maqsadiga muvofiq tartibini ta’minlovchi ketma-ketlikda bayon qilishga haqli.

• Ekspertga sud-psixologik ekspertizani o‘tkazish uchun taqdim etilgan ish materiallari va tibbiy hujjatlar;

• Sud-psixologik ekspertizani o‘tkazishda ishtirok etgan respondentlar haqidagi rasmiy ma’lumotlar.

1.3. Agar sud-psixologik ekspertizasi qo‘shimcha yoki takroriy ravishda o‘tkazilayotgan bo‘lsa, xulosaning kirish qismida qayd etilishi lozim. Mazkur hollarda oldingi ekspertiza (ekspertizalar) to‘g‘risida qisqacha ma’lumot – qachon, qaerda va kim tomonidan o‘tkazilgani, qanday xulosa (xulosalar) berilganligi, mazkur ekspertizani tayinlash asoslari keltiriladi.

1.4. Agar sud-psixologik ekspertizasini o'tkazish davomida ekspert (ekspertlar) tomonidan tekshirish uchun qo'shimcha materiallar berilishi to'g'risida rasmiy iltimosnoma berilgan bo'lsa, xulosaning kirish qismida mazkur hol va iltimosnomani (iltimosnomalarni) ko'rib chiqish natijalari aks ettirilishi kerak.

2. Diagnostik chora-tadbirlar (tadqiqot) qismi

2.1. Dastlabki bosqichda respondentning tarjimai holini aniqlahsga doir usuldan foydalaniladi.

Bu jarayonda respondentning tug'ilganidan to ayni paytgacha bo'lgan davrda u bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni aniqlashda xronologik ketma-ketlikka rioya qilish, shuningdek ta'lim jarayonida, oilada, mehnat qilishda, nikohda, ijtimoiy (shu jumladan kriminal) turmush tarzida o'ziga xos faoliyat modeli psixodiagnostik baholanadi.

2.2. Tekshirish quyidagilarni aks ettirishi kerak:

- aynan u bilan bog'liq holat yoki hodisalardan oldingi davrda ekspertiza qilinuvchining xulq-atvorini, individual-psixologik (tipologik) xususiyatlari va psixik ahvolini bevosita tavsiflovchi jinoiy yoki fuqarolik ishi materiallaridan olingan ma'lumotlar. Ushbu tekshirish aqsosan jabrlanganlar, guvohlar, (da'vogarlar, javobgarlar) bergan ma'lumotlariga asoslanadi va ekspertiza qilinuvchi kishining umuman yuzaga kelgan vaziyatni anglash qobiliyati doirasida joyda, vaqt davomida yo'nalishini aniqlash imkonini beradi;

- tekshirilayotgan kishining bolalik davri, maktabda o'qishining boshlanishi, o'smirlik yoshi, erta yoshlik davri, katta bo'lgan davridagi hayoti to'g'risida asosiy ma'lumotlar,

- tekshirilayotgan kishi psixologiyasini tekshirishning "biografik usuli"ni shartlab beradi;

- tekshirilayotgan shaxsning sodir bo'lgan hodisadan oldingi davrda insonga taalluqli bo'lgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarining turg'un shaxslilik xususiyatlari;

- u bilan sodir bo'lgan holatda individ to'g'risidagi masalalarni, tekshirilayotgan kishining (psixatrik dispanserda hisobda turgan yoki turmaganligi) ruhiy kasalligi borligi yoki yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, hal qilishni tasdiqlovchi yoki rad qiluvchi omillarni hisobga olgan holda asoslab berilishi kerak. Respondentda psixik buzilish bo'lgan holda, kasallikning rivojlanish va uning kechishini aniq va izchillik bilan aks ettirish, umumlashtiruvchi mulohazaga bormasdan, psixopatologik kechinmalarining o'ziga xos xususiyatlarini qayd qilish zarur. Bunda psixiatrik kasalxonalarga joylashtirish sanalarini keltirish, har bir kasalxonaga yotqizilganda yoki ambulator tartibda shifokor psixiatrlar ko'rigidan o'tgandagi (shu jumladan o'tmishda ambulatoriya yoki shifoxonada qilingan sud-psixiatrik ekspertizalardagi) tashxislarini ko'rsatish, hamda ekspertiza qilinayotgan kishining o'sha davrdagi psixik holatining xarakteristikasini keltirish zarur;

- tekshirilayotgan kishi to'g'risida ma'lumotlar yo'qligida, ijtimoiy muhitda u yoki bu ijtimoiy munosabatlarga kirishgan insonning psixologik o'ziga xos xususiyatlarini diagnostika qilish kerak va bunda uning individual-psixologik tuzilishini hisobga olish lozim;

- boshdan kechirgan somatik va boshqa kasalliklar ularning psixik holatga ko'rsatgan ta'siri;
- mehnat faoliyati to'g'risida nafaqat ish joylari va egallagan lavozimlari, balki imkon bo'lganda mehnat tavsifnomalari, u to'g'risida xizmatdoshlarining fikrlarini keltirish;
- sudlanganlik (agar bo'lsa) to'g'risidagi ma'lumotlarda sodir qilingan huquqbuzarlik to'g'risida qisqacha ma'lumot keltirish kerak, bu, ayniqsa, hozirda sodir qilingan huquqbuzarlik bilan bir turda bo'lganda muhim ahamiyat kasb etadi. Ozodlikdan mahrum qilish joylardan tavsifnomalar, agar bundaylar bo'lsa, keltirish kerak;
- tekshirilayotgan huquqiy vaziyat holatini batafil yoritish lozim.

2.3. U yoki bu ma'lumotga tayanilganda, uning manbasini ko'rsatish, jinoiy yoki fuqarolik ishlaridan foydalangan holda esa betlar va jildlarining tartib raqamlari ko'rsatilishi shart.

2.4. Eksperimental-psixologik tekshirish SPE xulosasining markaziy qismi hisoblanadi, unda ekspertiza qilinuvchi kishining psixik (psixologik) holati, tekshiruv o'tkazish natijasida hosil bo'lgan manzara aniq aks ettirilgan bo'lishi kerak.

Uning tarkibiga quyidagi tarkibiy qismlar kiradi:

- Respondent bilan olib borilgan suhbat mazmunining qisqacha tahlili (tekshirish davriga munosabati bilan bog'liq kechinmalarining so'z orqali ifodalangan tahlili);
- tekshirish davomida tekshirilayotgan kishi xulqining tavsifi, bunda aloqaning o'ziga xos xususiyatlarini baholash ham ko'zda tutiladi (muayyan masofani saqlash, qiziqish darajasi, emotsional indifferentligi va h.k.);
- huquqiy ahamiyatga ega vaziyatda yo'nalishini aniq bilish (orientirovka), sodir bo'layotgan hodisalarga tanqidiy yondashish, tekshirish maqsadini tushunishdagi emotsional holati;
- ekspertiza qilinayotgan kishi tomonidan huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatning baholanishi.

2.5. Diagnostik (tashxis) metodikalar yordamida eksperimental-psixologik tekshiruv.

- tekshirish qanday maxsus vositalardan (usullar va metodikalar–uslublar) foydalangan holda o'tkazilganligi ko'rsatiladi, bunda metodikaning psixodiagnostikada qabul qilingan to'liq nomlanishi, metodikaning muallifi, agar metodika modifikatsiya qilingan bo'lsa, modifikatsiyaning muallifi yoki ilmiy manbaga havola qilinishi shart. Bular tergovchi va sud tomonidan ekspert tadqiqot metodikalarini to'liq va ilmiyligiga, uning validililigiga, ularning qo'llanilishi to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilishi uchun muhim;
- ish jarayonining batafsil tavsifi, bunda bosqichlar, natijalarni qayd qilish usul va vositalari, eksperimental metodikalar qo'llanilishi natijasida olingan ma'lumotlar, olingan natijalarning talqini bayon etiladi;
- tekshirilayotgan kishining kognitiv imkoniyatlarini baholash;
- tekshirilayotgan kishining xulq-atvoridagi aksentuatsiya jihatlarining diagnostikasi.

2.6. Ish materiallari va eksperimental-psixologik tekshiruv natijalarining qiyosiy tahlili.

- Psixologik tahlil ham tomonlarning (ish materiallari), ish holatini hisobga olgan holda, bergan guvohlik ma'lumotlari, ham ekspertiza qilinayotgan kishining suhbat davomidagi kechinmalari – "hisobot" vaqtida, huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalardan oldin va keyingi davrlarda, individual-psixologik test natijalariga muvofiq tarzda aks etishi (qiyos qilingan holda) kerak;

- Tekshirish natijalari (ish materiallari, shu jumladan tibbiy hujjatlar va eksperimental testlash) tekshirish sub'ekti xulqiga oid o'ziga xos xususiyatlariga mos psixologik jarayonlarning kechishi fenomenologiyasi mezonlariga bo'lgan talablarga mos kelishi lozim.

3. Asoslovchi qism (xulosalar va ularni asoslash)

3.1. Ekspert komissiyasi oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha tadqiqot natijalarini baholash, xulosalarning asoslanishi va ifodalanishini aks ettiradi.

3.2. Xulosaning asoslovchi (yakuniy) qismi ekspertiza qilinayotgan kishining psixologik holatini baholash, savollarga javoblar va ularning batafsil asoslanishidan iborat.

3.3. Ekspert oldiga qo'yilgan savollardan birontasi ham javobsiz qolmasligi va o'tkazib yuborilishi mumkin emas. Agar ba'zi savollarga ekspert javob berib, boshqalariga javob berish mumkin emasligi to'g'risida ma'lumot berishiga asos mavjud bo'lsa, bu holda yagona xulosa tuzilib, unda ekspert xulosalar bilan bir qatorda, ekspert oldiga qo'yilgan savollarning ba'zilariga javob berish mumkin emasligining sabablari asoslab ko'rsatiladi.

Sud-psixolog eksperti oldiga qo'yilgan savollarni uning sohaga oid maxsus psixologik bilimlari asosida hal qilib bo'lmazligiga, unga taqdim qilingan tekshirish ob'ektlari va materiallar xulosa chiqarish uchun yaroqsiz va yetarli emasligiga, qo'shimcha materiallar yo'qligi yoki fan va sud-ekspert amaliyoti mazkur savollarga javob berish imkonini bermasligiga ishonch hosil qilganda, u xulosa berish imkoni yo'qligi to'g'risida dalolatnoma tuzib, uni sud ekspertizasini tayinlagan organga taqdim qiladi.

3.4. Xulosa psixologiya fanidan xabari yo'q bo'lgan sud jarayoni ishtirokchilari yoki tergov organi xodimlari uchun tushunarli tilda yozilgan bo'lishi shart. Shu bois xulosada maxsus atamalardan haddan tashqari ko'p foydalanmaslik, alohida hollarda esa maxsus atamalarning mazmuni tushuntirilishi lozim.

3.5. Jinoiy yoki fuqarolik ishi bo'yicha sudlov ishini yuritayotgan sudning yoki tergovning alohida vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha ekspert mulohaza va xulosalarga yo'l qo'ymasligi zarur.

Qayta ekspertiza tayinlangan holda, uning xulosasida oldingi ekspertiza xulosalari bilan farq bo'lsa, ushbu ekspertizalar xulosalarining tahlilini o'tkazish kerak, uning tarkibida differensial diagnostika elementlari bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda xulosada ish uchun ahamiyat kasb etuvchi hamda ekspert tashabbusi bilan belgilangan vaziyatlar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

4. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizalarda ekspert-psixologining roli

4.1. Ekspertlar teng huquqligiga asos soluvchi tamoyil bo'lib hizmat qiladi. Unga ko'ra, psixolog har qanday ekspert singari bir xil protsessual huquq va majburiyatlarga ega, ya'ni masalalarni mohiyatan hal qilishda hech qanday afzalliklardan foydalanmaydi. Ekspertlarning tenghuquqliligi olingan tekshirish natijalari va xulosalarining teng qiymatga egaligini belgilab beradi. Ularning har biri dastlab to'liq hajmda alohida ajratiladi.

4.2. Ekspert-psixologlar bevosita kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizani o'tkazishga uning tayinlanishi to'g'risidagi qaror yoki ajrimni olganlaridan so'ng darhol kirishadilar. Shu vaqtdan boshlab ular ekspertizani o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishi uchun javobgar bo'ladilar. Shu jumladan jinoiy tartibda ham – xulosa berishni rad qilish yoki atayin yolg'on xulosa berganlik uchun ma'suldirlar.

4.3. Ekspert-psixolog jinoiy yoki fuqarolik ishi materiallari bilan tanishadi, oldiga qo'yilgan masalalarni aniqlaydi, ularning mohiyatini aniqlashtiradi, tekshirishning pirovard maqsadlari va xususiy vazifalarini belgilab oladi, uning umumiy rejasini, alohida operatsiyalarini bajarish ketma-ketligini belgilaydi. Ularga quyidagilar kiradi:

- tekshirish davrining muayyan bosqichi ekspertiza qilinayotgan kishining psixiatr vakolatiga tegishli psixik holatini kvalifikatsiyalash (baholash) to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganishdan iborat (psixik (organik, endogen, ekzogen va b.) hamda psixik kasallik toifasiga kirmaydigan, mehnatga layoqatsizlik bilan shartlangan kasalliklar). Mazkur hal qiluvchi maqsadlarga erishish nafaqat mustaqil ekspertlik ahamiyatiga ega, balki psixologik tabiatga ega bo'lgan qolgan vazifalarni bajarish uchun haqiqiy asosni tashkil qiladi;

- psixiatr tomonidan aniqlangan psixik kasalliklar bilan bog'liq holatlarni hisobga olgan holda, psixolog ekspert o'zining tekshirishini o'tkazadi. Bunda patopsixologik alomatlar majmuini (simtomokompleks) hisobga oladi, ya'ni psixologik tekshirishdan oldin psixiatrik tekshiruv amalga oshirilishi shart;

- psixolog ekspertining tekshiruv qismida (ish vaziyatlari va guvohlar ko'rsatmalari, ish materiallarini tahlil qilish asosida) psixiatriya ma'lumotlarini hisobga olgan holda hamda jinoiy yoki fuqarolik ishlari jarayonining u yoki bu huquqiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan vaziyatida turgan ekspertiza qilinuvchi shaxsni eksperimental-psixologik tekshiruvini amalga oshirishi lozim;

- psixolog ekspert tekshirish pozitsiyasini aniqlab, va olingan natijalarga mos ravishda u yoki bu huquqiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan vaziyatdagi tekshirilayotgan shaxsning emotsional holati (shu jumladan xulq-atvor komponentlari) to'g'risida xulosa chiqaradi.

5. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizalarda psixolog ekspertining xulosasi

5.1. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizada sud psixolog-ekspertining tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirish jarayoni quyidagicha tuziladi:

- kirish (kirish qismi), anamnez, jismoniy, nevrologik va psixik holatning tavsifi va ish (jinoiy yoki fuqarolik) materiallarining tahlili psixiatr ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi;

- psixolog ekspertning tekshirish qismi psixologlar tomonidan qo'yilgan masalalar kontekstida, maxsus bilimlarni hisobga olgan holda, amalga oshiriladi. Xulosa asosini tashkil qilgan foydalanilgan usullar va ularni qo'llash natijalari to'liq hajmda keltirilgan bo'lishi kerak. Mazkur talabni buzish ekspertiza xulosasining yetarli darajada asoslanmagan deb hisoblash uchun sabab bo'ladi, chunki qonunchilik foydalanilgan materiallar, qo'llanilgan usullar va o'tkazilgan tekshirishlar haqidagi ma'lumotlarning xulosada to'liq aks ettirilishining muhimligini ta'kidlab o'tadi.

5.2. Kompleks ekspertizada ishtirok etayotgan psixolog-ekspert o'zi o'tkazgan tekshiruvlar tavsifi keltirilgan xulosaning qismini (o'zining xulosalari bilan birga) imzolaydi va buning uchun u javobgar hisoblanadi.

6. Ish yuritish va hujjatlarni saqlash

6.1. Ish yuritish va hujjatlarni saqlashni yo'lga qo'yish hujjat sifatidagi materiallarning saqlanishi, shuningdek ular-dan ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanishni ta'minlaydi. Jinoiy va fuqarolik ishlari materiallaridan olingan ko'chirma-lar, sud-psixologik ekspertizalar xulosalari, ekspertizalarni ro'yxatga olish jurnali, sud-tergov organlari bilan xat yozishuvi bo'yicha alohida ish yuritiladi va ular tashkilotda saqlanadi.

6.2. Sud-psixologik ekspertizalarining asl nusxalari tergov va sud organlariga mazkur organlar qarorlari yoki ajrimlari asosida beriladi.

6.3. Yuqorida keltirilgan hollarda ma'lumotlarning berili-shi sud-psixologik ekspert komissiyasini tashkil qilgan muassasa rahbarining yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs ruxsati bilan amalga oshiriladi.

6.4. Mazkur hujjatlarni saqlash uchun arxiv yo'q bo'lsa, ekspertizaning 3 yil muddatda saqlanishi lozim bo'lgan hujjatlari (bayonnomalar, xulosalar) yo'q qilinadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ekspertiza natijalarini baholagandan so'ng sud, ekspert xulosani yetarli darajada aniq yoki to'liq emas deb tan olganda, ekspertni xulosasini tushuntirib berishi uchun so'roqqa chaqirishi mumkin (FPK 86-modda, O'zbekiston Respublikasi JPK 186-modda). Ekspertni so'roq qilishda ekspert tomonidan xulosaga aniqlik kiritilmagan holda, mazkur ekspert yoki boshqa ekspert psixologiga qo'shimcha ekspertiza tayinlanishi mumkin. Ekspert xulosasi asoslanmagan bo'lsa yoki uning to'g'riligi shubha tug'dirgan holda, ekspertizani takroriy o'tkazish boshqa ekspert yoki ekspertlarga topshiriladi. Ekspertlar o'tkazgan ekspertizalar hisobini olib borishlari kerak.

12.12.2008-yildagi "Fuqarolik ishlari bo'yicha ekspertiza tayinlash, o'tkazish va ekspert xulosasiga baho berishdagi sud amaliyotida kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida"gi O'zbekiston Respublikasi oliy sudi Plenumining 24-sonli qarorining 16-bandida ta'kidlanganidek, "Sudlar

qo‘shimcha, qayta, kompleks va komissiyaviy ekspertiza tayinlash asoslari va tartibini qat’iy farqlashlari lozim”.

Psixolog-ekspert xulosasi mavjud huquqiy mantiq doira-sida, malaka jihatdan savodli, yuzaga kelgan vaziyatning barcha nozik farqlarni qamragan holda tuzilgan bo‘lishi shart.

Ushbu Plenum qarorining 22-bandida ta’kidlanganidek, “ekspertning ehtimol tutilgan xulosasi sud qaroriga asos qilib olinishi mumkin emas”, ekspert xulosalar esa sud bosqichlari undan to‘lig‘icha foydalanishi mumkin bo‘lgan holda taqdim qilinishi lozim.

“Davlat sud-ekspertiza muassasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot, tomonidan sud ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy Nizom”ining 32-bandiga muvofiq, “ekspert xulosalari uning oldiga qo‘yilgan masalalarga javob shaklida bayon qilinadi va turli talqinlarga yo‘l qo‘ymaydigan aniq, tushunarli tilda bayon qilinishi lozim”.

Natijalar


Sud huquq tizimida sud psixologik ekspertizalarni Oliy ta’lim muassasalarida (asosan psixologiya sohasi bo‘yicha kadr tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari) faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar o‘tkazishlarini inobatga oladigan bo‘lsak, sud psixolog ekspert faoliyati ikkinchi kasbiy faoliyat ekanligini, ularning pedagogik faoliyati bilan bog‘liq holda emas, balki sud psixolog eksperti sifatida baholanganligini qayd etish lozim.

1-jadval

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo‘yicha olingan ma’lumotlar tahlili (n=102)

Omillar		besh yilgacha ish stajiga ega boʻlgan ekspertlar		besh yildan ortiq ish stajiga ega boʻlgan ekspertlar		Farq (% hisobida)
		n1-41		n2-61		
		n	%	n	%	
«A» omil	Muloqotchan	16	39,01	40	65,6	±26,5
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	25	60,9	21	34,4	
	Jami	41	100	61	100	
«B» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	19	46,3	33	54,1	±7,8
	Zaif fikrlaydigan	22	53,6	28	45,9	

	Jami	41	100	61	100	
«C» omil	Barqaror	13	31,7	43	70,5	±38,8
	Beqaror	28	68,3	18	29,5	
	Jami	41	100	61	100	
«D» omil	Optimizm	16	39,01	34	55,7	±16,6
	Pessimizm	25	60,09	27	44,3	
	Jami	41	100	61	100	
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	34,1	38	62,3	±28,2
	Realist	27	65,9	23	37,7	
	Jami	41	100	61	100	
«N» omil	O'zini nazorat qila oladigan	19	46,3	45	73,8	±27,5
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	22	53,7	16	26,2	
	Jami	41	100	61	100	
«M» omil	O'ziga yo'nalgan	18	43,9	28	45,9	±2
	O'zgalarga yo'nalgan	23	56,1	33	54,1	
	Jami	41	100	61	100	
	Jami	41	100	61	100	



1-rasm. Kommunikativ ijtimoiy kompetentlikning namoyon bo'lishi

“Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi” metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko‘ra “A” omil bo‘yicha “muloqotchanlik” besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan ekspertlarga nisbatan besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan ekspertlarda 65,6% (+26,5%) ni, aksincha, muloqotga kirishishga qiyinalish 34,4 % (-26,5%) tashkil qildi. Ko‘rinib turibdiki, sud psixolog eksperti faoliyati ish staji va tajribasining ortib borishi bilan bog‘liq omil hisoblanadi. “B” omil bo‘yicha “mantiqiy fikrlash” darajasi besh yil stajga ega bo‘lganlarga nisbatan besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan ekspert 54,1% ni (+7,8%), “zaif fikrlash darajasi” esa besh yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlarda 53,6% ni (-7,8%) ko‘rsatdi. Lekin bu omil bo‘yicha besh yil va besh yildan ko‘p ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlari ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq oralig‘i ($\pm 7,8$) keskin tafovut qilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. “Mantiqiy fikrlash” qobiliyati sud psixolog eksperti faoliyati uchun muhim jihat hisoblanib, bu qobiliyat yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunda bevosita intellektual rivojlanish jarayonning roli beqiyosdir. “Barqarorlik” va “beqarorlik” omillari bo‘yicha ham besh yildan ortiq 70,5%, beqarorlik esa besh yilgacha 68,3% ni ($\pm 38,8$) tashkil etdi. Bundan ma’lum bo‘ldiki, barqaror ijtimoiy munosabatlar yillar davomida taraqqiy qiladi. Keyingi mezon, ya’ni, “optimizm” va “pessimizm” omili bo‘yicha besh yilgacha optimizm 39,01% ni, “pessimizm” esa besh yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlarda 60,09 % ni tashkil etdi. Optimizm, ya’ni yuqori kayfiyatda atrofdagilar bilan munosabatga kirishish 5 dan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlarda ustun bo‘lsa, pessimizm – ya’ni kayfiyatdagi o‘zgarishlar, shaxsiy pragmatik kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi uzilishlar besh yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan psixologlarda yuqori o‘rin egallashi aniqlandi ($\pm 16,6\%$).

“K” omili bo‘yicha “ijodiy tafakkuri rivojlanganlik darajasi” besh yilgacha 34,1 % ni, realistlar esa 65,9 % ni tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, muloqot qilish davomida besh yilgacha realistlik

tafakkur besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarda esa voqealarga kreativ yondashish, erkin munosabat bildira olish va tahlil qilish kabi sifatlar rivojlanar ekan.

Keyingi omil bo'yicha "O'zini nazorat qila olish" omili besh yilgacha 19 nafar shaxsda 46,3 % ni, "O'zini nazorat qilishda qiynalish" esa besh yildan ortiq stajlilarda 45 respondent ishtirokida 73,8 % da namoyon bo'ldi. So'nggi omil bo'yicha tahlil qilinganda "o'ziga yo'nalganlik" besh yildan ortiqish stajiga ega bo'lgan 28 nafar respondent ishtirokida 45,9%ni "o'zgalarga yo'nalganlik" 23 nafar respondent bilan besh yilgacha 56,1%ni tashkil qildi. Unga ko'ra kommunikasion muomala jarayonida o'ziga bo'lgan munosabatning ustunligi besh yildan ortiq vaqt ichida to'liq shakllanadi, ungacha esa o'zgalarga ya'ni ijtimoiy muhitga e'tibor bevosita ustunlik qiladi. Ushbu tahlillar 1-jadval va 1-rasmda yanada aniqroq o'z aksini topgan.

Demak, o'rganilgan empirik natijalar asosida sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik bilan bog'liq bo'lgan manbalarni tahlillariga asoslanib, tadqiqot ishimizda sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi ularning kasbiy kamoloti jarayoniga bog'liqligini tatqiq qilishga undadi. Bu esa ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblangan emotsional intellektning sud psixolog eksperti faoliyatida o'zaro aloqadorlikda rivojlanish jarayonini alohida tadqiq qilishni talab qiladi.

XULOSA

Shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixotexnika, hamda o'quv modulining samaradorligini baholashda aniqlovchi va nazorat tajribalaridan olingan natijalarning tahlillariga asoslanib, qolaversa, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi va uni sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga ta'siri natijasini tadqiq qilish bo'yicha quyidagilar aniqlandi:

1. Ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlik sud psixolog ekspertining samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalari majmui sifatida sud psixolog ekspertining kasbiy faoliyatida ahamiyatli ekanligi aniqlandi.
2. Sud psixolog ekspertining kasbiy faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning namoyon etilishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar professionallik darajasini takomillashuviga xizmat qilishi mumkin.

3. Sud psixolog ekspertining u yoki bu insonlar bilan o‘zaro adekvat munosabatga kirisha olishi, xususan, sudga oid psixologik ekspertizalarda yuqori darajada muloqotmandligi, muloqot vaziyatlarini tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, hatti-harakatlari, ruhiy kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarining namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

4. Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertida o‘ziga xos tarzda shakllangan kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog‘liqligi ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladi.

5. Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kasbiy kompetentlik omillariga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lishi sud psixologik ekspertizasini yuqori samaradorlik asosida tashkil qilish va uni o‘tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Sud psixolog ekspertining sud psixologik ekspertizalarni belgilangan me’yorlar asosida tashkil qilishi va uni o‘tkazishi ularning sohaga oid bilimdonligiga bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan sohaga oid tushunchalar haqida bilimga ega bo‘lishi va uni amaliyotga qo‘llay olishi imkoniyatlarini baholash orqali ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini aniqlash imkoniyati yaratildi.

7. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha o‘quv modulini amalda qo‘llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga bog‘liq bo‘lgan kasbiy kompetentlikning yuqori diapazonda ko‘tarilganligini ko‘rsatadi. O‘quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta’minlovchi sohaga tegishli bo‘lgan me’yoriy hujjatlar bo‘yicha savodxonligi, shuningdek psixodagnostik ishlarni amalga qo‘llay olishi, sudga oid psixologik ekspertizasi xulosasini sifatli tarzda rasmiylashtirish bo‘yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

8. Sud psixologik ekspertizasi ishlarida faoliyat olib boradigan ekspertlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning sud psixolog eksperti sifatidagi faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog‘liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Golniiz G., Schulz-Wulf G. Rhythmischesch-psychomotorische Musiktherapie. Yena, 2004.-112 p.
2. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.
3. Gmott H.G. between Parent and Children. N.Y., 2003. P – 219.

4. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
5. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
6. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
7. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
8. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
9. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
10. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. O'smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishining o'ziga xosligi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
11. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixologicheskie mexanizmi deviantnogo povedeniya. Psixologiya XXI veka. Yaroslavl., 2020. –S. 125-127.
12. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya. Uchrediteli: Buxarskiy gosudarstvenniy universitet, 31-38.
13. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

UZLUKSIZ TA'LIMDA MASOFAVIY TA'LIM IMKONIYATLARI

Djurayev Risbay Xaydarovich

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim mudiri, pedagogika fanlari doktori, akademik

Annotatsiya. Maqolada masofaviy ta'lim imkoniyatlari, an'anaviy ta'limdan afzalliklari va kamchiliklari o'rganilgan. Masofaviy ta'lim – kelajak ta'limi sifatida sun'iy intellekt vositasida tobora takomillashib borishi obyektiv jarayon ekanligini gipotetik asoslangan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Annotation. The article explores the possibilities of distance learning, the advantages and disadvantages of traditional learning. Distance education is hypothetically based on the fact that, as a future education, it is an objective process that is increasingly improved by the means of artificial intelligence.

Keywords: continuing education, distance education, artificial intelligence, digital technology, ICT.

Аннотация. В статье рассматриваются возможности дистанционного обучения, преимущества и недостатки традиционного обучения. Гипотетически обосновано, что дистанционное обучение – как образование будущего, все более совершенствующееся с помощью искусственного интеллекта-является объективным процессом.

Ключевые слова: непрерывное образование, дистанционное обучение, искусственный интеллект, цифровые технологии, информационные и коммуникационные технологии.

Kirish. Raqamli texnologiyalar insoniyat hayotining barcha jabhalari kabi ta'lim tizimiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar, xususan masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan uzluksiz ta'lim tizimida foydalanish O'zbekiston Respublikasining bir qator qonun [1] va qonunosti hujjatlarida

[2, 3] o'z aksini topgan. Xalqaro miqyosda Intertational Council for Open and Distance Education [17], Eden Digital Learning Europe [18] kabi xalqaro tashkilotlar faoliyati oliy ta'lim tizimiga masofaviy ta'limni tatbiq etish uchun namuna bo'la oladi. Zamonaviy ta'lim paradigmalari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida masofaviy ta'lim imkoniyatlarini ochib berishga e'tibor qaratiladi.

Asosiy qism. So'nggi yarim asrda masofaviy ta'lim mazmuni va uning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rnini organishga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi va hozirgi kunda ham dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida bunday tadqiqotlar amaliy hayotga samarali tatbiq etilmoqda. Universitet – 4.0 modeli asosida faoliyat olib boruvchi ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim bilan bir qatorda o'qish va o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish ham trendga chiqmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta'limga tatbiq etilishi bugungi kunda masofaviy ta'limning va sun'iy intellekt bilan integratsiyasida namoyon bo'lmoqda [19]. Bu Birlashgan Millatlar tashkilotining Barqaror rivojlanish strategiyalarida ham o'z aksini topgan. Bugun dunyoda Singapurda birinchilardan bo'lib sun'iy intellekt orqali ta'lim olishga yo'naltirilgan "Aqlli millat" strategiyasi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilmoqda [20].

Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan ta'lim olish turidir [1]. Masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishning me'yoriy-huquqiy, ilmiy-amaliy asoslari hozirgi kunda ta'lim sohada izlanishlar olib borayotgan ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. Mavzuga oid manbalarni o'rganishda quyidagi olim va tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor qaratdik: masofali ta'limning asosi bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim olishdagi ahamiyati, imkoniyatlari, kamchilik va yutuqlari kabilar B.N.Kireev [11], A.Gotlib [9], David F. Noble [7], Elizabeth Masterman va Marion Manton [11], Bassett, Katherine [6], Paul Kirschner va Niki Davis [13], Ratheeswari K. [14], Suryani

Adi [16], A.Sangra va M.Gonsales-Sanmamed [5], J.Lourens, A.Usman Tar [12] va hokazolarning monografiya va ilmiy maqolalarida o'rganilgan.

K.Ratheeswari masofaviy ta'limni tashkil etishning ijobiy jihatlarini quyidagilar bilan izohlaydi: mazkur ta'lim shaklida yoshi va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar aholining barcha qatlami ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi; masofaviy ta'lim iqtisodiy jihatdan ta'lim oluvchilar uchun ham, oliy ta'lim muassasasi uchun ham samaralidir. Chunki unda an'anaviy ta'limga nisbatan harajat va to'lovlar ancha kam. Shuningdek, oliy ta'limning mazkur shakli ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarga oliy ta'lim muassasalariga borish-kelish uchun sarflanadigan vaqtni ham tejashga imkoniyat yaratadi. Tejalgan vaqt hisobiga yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish mumkin [14].

O'rganilgan manbalarga ko'ra masofaviy ta'lim yaratadigan qulayliklar qatorida quyidagilarni ham kiritish mumkin – ushbu ta'lim shaklida o'quvchi ishdan ajralmagan holda ta'lim olishni hoxlovchilar ushbu ta'lim shaklida o'qish vaqti, joyi va o'quv yurtini o'z hoxishiga ko'ra tanlashi mumkin. Shu bilan birga, tizimdagi dasturiy resurslar yordamida talabani bilimini baholashda xolislik va shaffoflikning yuqori darajada ta'minlanishiga ham erishish mumkin.

Masofaviy ta'lim - talabada mustaqil bilim olish, o'z ustida ishlash, ijodiy va intellektual salohiyatni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi [4, 93]. Yetakchi mutaxassislar tomonidan masofaviy ta'lim istiqbolda sun'iy intellekt vositasida yanada ommalashishi va an'anaviy ta'limga raqobatchi bo'la olishi bashorat qilinmoqda. Sun'iy intellekt – inson ko'nikmalarini qayta ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan dasturlar to'plami bo'lib, u mavjud muammolara yechim topish, rejalashtirish, bilim olish, o'z ustida ishlash kabi vazifalarni o'z vaqtida va to'liq bajarishga yordam beradigan vositadir [15].

Masofaviy talim hamda sun'iy intellekt integratsiyasi afzalliklarini quyidagilarda kuzatish mumkin:

1. *Individual talim*: sun'iy intellekt har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlari va fikrlash qobiliyatidan kelib chiqqan holda yondashish imkoniyatini beradi.
2. *Samaradorlikni oshirish*: sun'iy intellekt baholash va davomat kabi ko'plab

mamuriy vazifalarni avtomatlashtirishi, o'qituvchilarni kurslar ishlab chiqish kabi vazifalardan ozod qilishi mumkin.

3. *Hammaboplik imkoniyati*: sun'iy intellekt nogironligi bo'lgan talabalarga nutqni aniqlash va ularni masofadan turib darsda ishtirok etishlarini taminlab berishi mumkin.

4. *Interaktiv talim berish imkoniyati*: sun'iy intellekt chat-botlar, virtual yordamchilar kabi interaktiv va qiziqarli o'quv dasturlarini yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Bu talabalarga darsda faol bo'lish va qiziqishlarini oshirishga yordam beradi [14].

Sun'iy intellekt tufayli masofaviy ta'limda paydo bo'lgan yuqoridagi afzalliklarga qaramasdan ushbu jarayonning kamchiliklari ham mavjud. Bu kamchiliklar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. *O'zaro muloqotning yetishmasligi*: talabalar o'qituvchilar va tengdoshlari bilan yuzma-yuz muloqot qilishning afzalliklarini qo'ldan boy berishlari mumkin.

2. *Texnik muammolar*: sun'iy intellekt tizimlari murakkab bo'lishi mumkin va ularni amalga oshirish hamda qo'llab-quvvatlash katta texnik tajribani talab qiladi. Tizimdagi nosozliklar va xatolar kabi texnik muammolar o'quv jarayonini buzishi va talabalar hamda o'qituvchilarda ishonchsizliklar keltirib chiqarishi mumkin.

3. *Maxfiylik muammolari*: sun'iy intellekt talabalarning maxfiy malumotlarini to'plashi, saqlashi va undan foydalanishi mumkin. OTMlar talabalar malumotlarini himoya qilish va ulardan axloqiy foydalanish choralarini ko'rishi kerak.

Xulosa. Mavzu yuzasidan olib borilgan izlanishlar va kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, masofaviy ta'lim – kelajak ta'limidir. Zero insoniyat hayotida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt ta'siri oshib borar ekan, uzluksiz ta'lim tizimida masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ta'lim oluvchilarda masofadan ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirib borish zarur. Masofaviy ta'limning afzalliklaridan yuqori darajada foydalanib, sun'iy intellekt

imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish yoshlarga an'anaviy ta'lim bera olmagan natijalarni berishini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risidagi PQ-279 sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 559-sonli qarori
4. Axmedov B. A. Ta'lim jarayonida masofaviy ta'lim muammolari va yechimlari // PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 1. – S. 93-97.
5. Albert Sangrà & Mercedes González-Sanmamed (2010) The role of information and communication technologies in improving teaching and learning processes in primary and secondary schools, ALT-J, 18:3, 207- 220, DOI: 10.1080/09687769.2010.529108
6. Bassett, Katherine Teaching in a Digital Age: How Educators Use Technology to Improve Student Learning // Journal of Research on Technology in Education, v48 n3 p194-211 2016. DOI: 10.1080/15391523.2016.1175856 <https://eric.ed.gov/?id=EJ1103482>
7. David F. Noble. America Design By; Science, technology, and the growth of corporate capitalism. -New York, Knopf, 1977.
8. David F. Noble. Digital diploma mills: The automation of higher education. New York, Monthly Review Press, 2001, ISBN 978-1-58367-061-3 , LCCN 2001057931
9. Gotlib A. Smojet li onlayn-obrazovaniye stat alternativoy traditsionnomu universitetu // Vestnik SamGU. 2015, №1 (123) . –S. 15- 22.
10. Elizabeth Masterman & Marion Manton (2011) Teachers' perspectives on digital tools for pedagogic planning and design,

Technology, Pedagogy and Education, 20:2, 227-246,

DOI:10.1080/1475939X.2011.58841

11. Kireev B.N. Ispolzovaniye e-Learning pri podgotovke pedagogicheskix kadrov // Vysshee obrazovaniye v Rossii. 2016. №2 (198). S. 148–154.

12. Japhet E. Lawrence, Usman A. Tar Factors that influence teachers' adoption and integration of ICT in teaching/learning process // Educational Media International. February 2018, 55(4):1-27. DOI: 10.1080/09523987.2018.1439712

13. Paul Kirschner & Niki Davis (2003) Pedagogic benchmarks for information and communications technology in teacher education, Technology, Pedagogy and Education, 12:1, 125-147, DOI:

10.1080/14759390300200149

14. Ratheeswari K. Information Communication Technology in Education // Journal of Applied and Advanced Research. 2018/05/10. VL-3 DOI-10.21839/jaar.2018.v3iS1.169.

15. Xurramov M. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish. Metodik qo'llanma. -T.: Yetakchi nashriyoti, 2024

16. Suryani Adi ICT in education: its benefits, difficulties, and organizational development issues // Jurnal Sosial Humaniora. 2010/11/02. VL-3. DOI - 10.12962/j24433527.v3i2.643

17. <https://www.icde.org>

18. <https://eden-europe.eu/>

19. <https://www.hp.com/in-en/shop/tech-takes/post/ai-in-education>

20. <https://www.smartnation.gov.sg/>